

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 330.5**

MAXMUDOV BOBUR MAXMUDOVICH

**AHOLINING ISH BILAN BANDLIK TARKIBINI SIFAT
JIHATDAN YAXSHILASH YO'LLARI**

Mutaxassislik: 5A230102 - «Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Toshkent-2015

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

i.f.n., dotsent X.Asatullaev

Kafedra mudiri

i.f.d., professor T.Jo'raev

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

MUNDARIJA

	Kirish	
I-BOB.	AHOLINING ISH BILAN BANDLIK TARKIBINI SIFAT JIHATDAN SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1	Aholi ish bilan bandligining ilmiy-nazariy asoslari.....	
1.2.	Aholining ish bilan bandlik tarkibi tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.....	
1.3.	Ish bilan bandlik darajasi va uning tarkibini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	
	I - bob bo'yicha xulosa.....	
II-BOB.	O'ZBEKISTONDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIK TARKIBINI SHAKLLANISHINING HOZIRGI DARAJASI.....	
2.1.	Aholi ish bilan bandligining iqtisodiyot sohalari va tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlarga bog'liqligining qiyosiy tahlili.....	
2.2.	Aholi ish bilan bandligi tarkibining demografik belgilari bo'yicha o'zgarish tamoyillari.....	
2.3.	Ish bilan bandlarning kasb-malaka tarkibining tahlili.....	
	II-bob bo'yicha xulosa	
III-BOB.	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA AHOLINING ISH BILAN BANDLIK TARKIBINI SIFAT JIHATDAN YAXSHILASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	
3.1.	Mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash tizimini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning istiqboliy tamoyillarini hisobga olib takomillashtirish.....	
3.2.	Aholining ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirishda infratuzilmani rivojlantirish.....	
	III- bob bo'yicha xulosa.....	
	Xulosa va takliflar.....	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. XXI asrning boshlanishi jahon xo'jaligining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan xarakterlanadi. Iqtisodiyotning globallashuvi ko'p sohalarni qamrab olganligi sababli mehnat bozorida katta o'zgarishlar yuz bermokda va aholining ish bilan bandligi masalalari yangicha namoyon bo'lmokda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy barqarorlikka erishdi va bugungi kunda mamlakatda iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda. Ushbu yutuqlarga Hukumatning iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish strategiyasi asos bo'lganligi shubhasizdir. Bu iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq samarali siyosat olib borish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ish o'rinlari sonining ko'payishi va aholining ish bilan bandligi oshishi ko'rsatkichlari ushbu jarayonning indikatoriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014 yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir"¹.

"Ushbu ko'rsatkichlarni mamnuniyat bilan qayd etar ekanmiz, bu vazifa joriy va kelgusi yillarda ham ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarimizning markazida bo'lishi lozimligini barchamiz yaxshi anglaymiz, albatta», deb ta'kidladi².

Erishilgan yutuqlarga qaramay, birinchi o'rinda, ayniqsa qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratish hisobiga ishsizlikni qisqartirish respublikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi bir qancha

¹ И.А.Каримов. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тadbirkorlikка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир //“Халқ сўзи” газетаси. 2015 йил 17 январь, № 14.

² И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – кенг қўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. //“Халқ сўзи” газетаси. 2013 йил 19 январь, № 13.

tarmoqlardan xodimlarning bo'shab qolishi bilan birga kechmoqda. Mehnatga layoqatli aholining tabiiy o'sishi ham yuqori darajada bo'lib qolmoqda. Biroq aholining ishga joylashish ehtiyoji bilan iqtisodiyotning ish kuchiga bo'lgan talabi o'rtasida, xodimlarning professional tarkibi bilan taklif etilayotgan ishning xususiyati o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keldi.

Mana shu muhim omil hisobga olingan holda, tadqiqotda ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar alohida o'rin tutadi. Aholining ish bilan bandligi tarkibi o'zgarishini belgilab beradigan yangi tendentsiyalarni nazariy mushohada etish va mehnat bozorining faoliyat ko'rsatishi, aholi bandligini, transformatsiya shakllari o'ziga xosligini, qonuniyatlarini takomillashtirishni keltirib chiqaradigan jami omillarni har tomonlama tadqiq etish talab qilinadi.

Mamlakat iqtisodiyotining transformatsiyasi xo'jalik tarmoqlari bo'yicha ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishiga olib keladi. Bu o'rinda yangi hodisalargagina emas, balki ish bilan to'liq bandlikka, xodimlarning tarmoqlar va sohalar bo'yicha rejali taqsimlanishiga asoslangan oldingi munosabatlar buzilishiga duch kelinadi. Mana shu nuqtai nazardan ish bilan bandlik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish birinchi darajali nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ushbu muammoni tadqiq etishning dolzarbligi aholini ish bilan ta'minlash tarkibini takomillashtirishning nazariy, metodologik va amaliy bazasini ishlab chiqish tugallanmaganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Tadqiqotning ob'ekti iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida aholining ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish tizimi, predmeti esa aholining ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni o'rganishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadi – iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasida aholining ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning qo'yilgan maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- aholining ish bilan bandligi tarkibini shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- ish bilan bandlik darajasi va uning xususiyatlarini baholash;
- aholini xo'jalik sohalari va tarmoqlari bo'yicha taqsimlashning tendentsiyalari va xususiyatlarini aniqlash;
- ish bilan band bo'lganlar toifasi va uning mohiyatini aniqlash;
- ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- aholining ish bilan bandligi tarkibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari shu bilan belgilanadiki, iqtisodiy islohotlar sharoitida aholining ish bilan bandligi tarkibi iqtisodiyotning samaradorligini oshirilishiga ta'sir ko'rsatishi zarur hamda tarmoqlar bo'yicha aholi bandligi hajmi maqbul bo'lishi va xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga mos kelishi talab qilinadi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiyotni rivojlantirishning maqbul strategiyasini shakllantirishning tarkibiy qismi hisoblangan aholining ish bilan bandligi masalalari N.Volgin³, B. Breev⁴, V. Bulanov⁵, B.Genkin⁶, Yu.Gorelov⁷, S.Jukov⁸, P.Juravlev⁹, Keynes¹⁰, A.Kokina¹¹, K.Makkonnell¹², R.Mumladze¹³, Yu.Odegov¹⁴,

³ Волгин Н.А. Экономика труда: (социально-трудовые отношения) / Под ред. Н.Л. Волгина, Ю.Д. Одегова. - М.: «ЭКЗАМЕН», 2009

⁴ Бреев Б. Д. Безработица в современной России. - М.: Наука, 2005

⁵ Буланов В. Рынок труда. Учебник. - М: Экзамен, 2007

⁶ Генкин Б. Экономика и социология труда. - М.: Норма-Инфра. 2007

⁷ Горелов Ю. Экономика труда. Учебник. Питер, 2007;

⁸ Жуков С., Резникова О.В. Центральная Азия в социально-экономических структурах современного мира. - Москва: Московский общественный научный фонд, 2001;

⁹ Журавлев П. Управление человеческими ресурсами: опыт индустриально развитых стран. - М: ЭКЗАМЕН, 2005;

¹⁰ Кейнс Дж. Общая теории занятости, процента и денег. - М.: 1978.

¹¹ Кокина А.Я. Экономика труда. Учебник. - М.: Магистр, 2010. - 293 стр.

¹² К.Р.Макконел, С.Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. /Перевод с англ. -М.: ИНФРА-М, 2006. -940 с.

Rudenko¹⁵, A.Rofe¹⁶, L.Sbitova¹⁷, A.Smit¹⁸, kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda asosan aholining ish bilan bandligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ish bilan bandlik shakllarining tasnifi, ish bilan bandlikning asosiy turlari va shakllari, aholining mehnat migratsiyasi, ish bilan ta'minlashni tartibga solish, aholi ish bilan bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi kabi nazariy-uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi muammolarning nazariy asoslarini o'rganish va echimlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan etakchi olimlar qatoriga Q.X.Abdurahmonov¹⁹, X.P.Abulqosimov²⁰, B.X.Umurzakov²¹, Sh.R.Xolmo'minov²², D.Rahimova²³, N.Q.Zokirova²⁴, D.A.Ortiqova²⁵, N.Rahimova²⁶, R.Ubaydullaeva²⁷, N.T.Shoyusupova²⁸larni kiritish mumkin. Ularning ilmiy ishlarida aholini ish bilan bandligini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatimiz hamda xorijiy olimlar va amaliyotchilar ilmiy ishlarida aholining ish bilan bandligi tarkibiga etarlicha e'tibor berilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratdi.

¹³ Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. – 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2007.

¹⁴ Одегов Ю.Г. Экономика труда: Учебник — М.: Волтерс Клувер, 2011. - 768 с.

¹⁵ Руденко Г.Г. Специфика положения молодёжи на рынке труда / Г.Г. Руденко, А.Р. Савелов // Социологические исследования. - 2002.

¹⁶ Рофе А. Экономика и социология труда. - М.: МИК, 2004;

¹⁷ Сбытова Л. Структура занятости и эффективность производства. - М.: Наука, 1982;

¹⁸ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Наука, 1993.

¹⁹ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2012. – 388 б

²⁰ Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётда инсон омили: шаклланиши, амал қилиши ва фаоллашуви. Монография. – Т.: Академия, 2006. – 346 б.

²¹ Умурзаков Б.Х., Рахимов М. Меҳнат мунособатлари ва менталитет. - Т.: Ўзбекистон, 2005.

²² Холмўминов Ш.Р. Меҳнат бозори иқтисодиёти. – Т.: ТДИУ, 2004. – 202 б.

²³ Раҳимова Д.Н. ва бошқалар. Миллий меҳнат бозори учун кадрлар тайёрлашни бошқаришни такомиллаштириш йўналишлари. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – Б.23.

²⁴ Зокирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международный и национальные аспекты. - Т.: Фан, 2008. – С. 88.

²⁵ Артыкова Д.А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. – Т.: Фан, 2005;

²⁶ Рахимова Н.Х. Повышение экономической активности женщин на рынке труда Узбекистана. Автореф. дисс... докт. экон. наук. – Ташкент, ИЭ АН РУз, 2007

²⁷ Ubaydullaeva P., Ata – Mirzaev O., Umarova N. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – Т.: Университет, 2006;

²⁸ Шойусупова Н.Т. Меҳнат социологияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 160 бет

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiyani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, shu jumladan mantiqiy, statistik, matematik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rovlar, sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishini keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Dissertatsiya ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishi muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu dissertatsiyaning ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida, shuningdek iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi aholining ish bilan bandligining roli va o'rnini tavsiflaydigan qonuniyatlar va hodisalarni nazariy va amaliy umumlashtirishdan, xo'jalik tarmoqlari bo'yicha ish bilan bandlik tarkibini yaxshilashni asoslashdan, ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliy aprobatsiya qilishdan iborat bo'lib, u quyidagilarda o'z aksini topgan:

- aholini ish bilan bandligi tarkibi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati aniqlashtirilgan;
- ish bilan bandlikni ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va bu tajribalardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;
- aholining ish bilan bandligi tarkibi tarmoq, mulkchilik shakli, demografik, kasb-malaka belgilari bo'yicha tahlil qilindi va Respublikadagi ish bilan bandlik tarkibi xolatiga baho berildi;

- aholining ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash yo'nalishlari belgilandi;
- o'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etilgan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ish kirish qismi, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Tadqiqot ishining kirish qismida dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili, tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning tavsifi, dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, natijalarning joriy etilishi hamda tadqiqot ishining tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida aholi ish bilan bandligining nazariy masalalari, ish bilan bandlik tarkibining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, aholini ish bilan bandligini ta'minlashning xorijiy tajribalari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, mavzuga aloqador olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobida, O'zbekiston Respublikasida aholi ish bilan bandligi tarkibi tarmoqlar, mulkchilik shakllari, ish bilan bandlarning demografik belgilar, kasb-malaka darajalarini o'zida aks ettiruvchi aholining ish bilan bandligining sifat jihatlari tahlil qilingan.

Uchinchi bobda muallif iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga mos xolda ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash yo'nalishi sifatida mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, aholini ish bilan bandlik infratuzilmasini rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslangan holda yoritgan.

Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida ishning yakuniy qismida muallif tomonidan ishlab chiqilgan xulosa va takliflar keltirilgan.

I - BOB. AHOLINING ISH BILAN BANDLIGI VA UNING TARKIBINI SIFAT JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aholi ish bilan bandligining ilmiy-nazariy masalalari

Ma'lumki, iqtisodiy siyosat ish bilan bandlik holatiga katta ta'sirini o'tkazadi. Demak, iqtisodiy nazariyalarining ish bilan bandlik bilan bog'liq qismlari mavjud.

Aholi ish bilan bandligining nazariy asoslari asrlar davomida shakllangan va rivojlantirilgan. Bu ta'limotda, asosan to'rtta: klassiklar, keynschilar, monetarchilar va institutsionalchilar maktablari farqlanadi.

1. *Klassik nazariya.* Bu maktab vakillari (A.Smit, D.Rikardo, J.B. Sey, A.Marshall va boshqalar) ish bilan to'la bandlik-bozor iqtisodiyotining normasi, davlatning bu jarayonga aralashmaligi eng yaxshi siyosatdir deb hisoblaganlar.

Adam Smit (1723-1790 y.y.) klassik iqtisodiy nazariyasining asoschisi bo'lib ilk bor "ko'rinmas qo'l" g'oyasini olg'a surdi. Mazkur g'oya bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha iqtisodiy sub'ektlar erkin ravishda iqtisodiy qarorlarni qabul qilishlari kerak. Davlat iqtisodiyotga aralashmaydi va bozorlarda mukammal raqobat o'zidan-o'zi o'rnatiladi.

Xususan, u o'zining «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776 y.) nomidagi asarida odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha ishsizlik mukammal raqobat sharoitida ro'y bermaydi va mehnat haqi bimalol o'zgarib turadi. Ish bilan bandlik tarkibi esa tarmoqlardagi foyda normasi bilan belgilanadi, ya'ni qaysi tarmoqda foyda ko'p bo'lsa, kapital va mehnat shu tarmoqqa oqadi.

David Rikardo (1772-1823 y.y.) mehnat qiymati nazariyasining asoschisi bo'lib Adam Smitning fikriga qo'shiladi. Faqat u klassik iqtisodiy nazariyani

muqobil qiymat nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqadi. So'ng u tashqi savdo masalalarini ham o'rganadi va nisbiy afzallik g'oyasini ishlab chiqadi. Mazkur g'oyaga ko'ra qaysi ishlab chiqarish tarmog'i mahsulot ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega bo'lsa – kapital va mehnat shu tarmoqqa qarab oqadi.

Jan Batist Sey (1767 – 1832 y.y.), qiymatning omilli nazariyasini ishlab chiqdi va klassik maktab nazariyasini yanada rivojlantiradi. U investitsiyalar jamg'arishga tengligini daromadlar va sarflar muvozanatini ta'minlovchi shart sifatida belgilaydi. Uning fikricha barcha ishlab chiqarish omillari egalari yaratilgan milliy daromadni o'z hissasiga ko'ra bo'lib olishadi. Shu jumladan, ishchi kuchi egalari ham o'z hissasiga ko'ra mehnat haqini olishadi. Ish bilan bandlik tarkibi tarmoqlarda mehnatning yalpi mahsulotga qo'shgan hissasiga bog'liq – qaysi tarmoqda bu hissa katta bo'lsa, shu tarmoqda mehnat hajmi va bandlik ham yuqori bo'ladi.


Alfred Marshall (1842-1924 y.y.), klassik iqtisodiy nazariyasini neoklassik iqtisodiy nazariyasigacha rivojlantirdi, ya'ni u talab va taklif nuqtai nazaridan ish bilan bandlik nazariyasini tahlil qildi. Hususan, uning fikricha mehnat unumdorligi oshishi mehnatga bo'lgan talabni oshiradi, chunki mehnat unumdorligi oshishi natijasida mahsulot qiymati kamayadi va uning taklifi oshadi. Demak, qaysi sohada mehnat unumdorligi oshsa, shu sohada bandlik hajmi kamayadi, mehnat unumdorligi past bo'lgan tarmoqlarda bandlik soni yuqori bo'ladi. Haqiqatdan ham, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ayniqsa texnologik jihatdan rivojlanmagan ishlab chiqarishda etishtiriladi, ya'ni bunday ishlab chiqarishda ko'p mehnatdan foydalaniladi.

2. *Keynschilar nazariyasi (J.M.Keyns, J.Robinson, R.Xarrod, E. Domar va boshqalar).* J.M. Keyns mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning eng asosiy vazifalaridan biri ish bilan to'la bandlikka erishish, deb hisoblagan²⁹. 1933 yilga kelib AQShda ishlab chiqarish inqirozi (tarixda “Buyuk inqiroz” nomi bilan mashxur) yuz berdi. Inqiroz paytida ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi 25% tashkil qildi. Bu vaziyatni klassik va neoklassik maktab vakillari nazariyalari

²⁹ Кейнс Дж. Общая теории занятости, процента и денег. – М.: 1978.

tushuntirib bera olishmadi. Shuning uchun ham Yangi nazariya yaratilishi muqarrar edi.

Djon Meynard Keynes (1883-1946 y.y.) – davlat tomonidan tartibga solinadigan iqtisodiyot nazariyasini ishlab chiqdi. U o'zining «Ish bilan bandlik, foiz va pul nazariyasi» (1936 y.) deb nomlangan asarida mutlaq yangi ish bilan bandlik nazariyasini taklif qildi. U investitsiyalar jamg'arishga har doim teng bo'lmasligini isbotlaydi va to'la bo'lmagan ish bilan bandlik holatini kelib chiqishini tushuntirib beradi. Uning fikricha, agar tarmoqda yalpi talab past bo'lsa, unda o'sha tarmoqda ish bilan bandlik darajasi kamayadi. Yalpi talabni oshirish uchun kreditlarni arzonlashtirish va soliqlarni kamaytirish lozim. Keynesning fikricha yalpi talabning o'sishi quyidagilarning o'sishi orqali ta'minlanadi – iste'mol, investitsiyalar, davlat sarflari. (1.1.1-rasm)



1.1.1-rasm. Ish bilan bandlikning keynschilar nazariyasi³⁰

1.1.1.-rasmdan ma'lumki, AD – yalpi talab miqdori; Y – yalpi ichki mahsulot miqdori; R – narxlar darajasi. Boshqacha aytganda, agar to'la bandlik holati ta'minlanmasa, ya'ni $Y < Y^*$ bo'lmasa, unda yalpi talab oshirilishi lozim, ya'ni AD chizig'i AD' holatiga keltirilishi lozim, so'ngra esa uni yanada chapga siljitish lozim, to to'la ish bilan bandlik ta'minlanguncha. Narx-navo darajasi ($R=R^*$) o'zgarmas bo'lib saqlanib qoladi.

³⁰ К.Р.Макконел, С.Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. /Перевод с англ. –М.: ИНФРА-М, 2006. -940 с.


Keynsning ta'kidlashicha, "Ish haqining pastligi yangi klassik nazariyaning qoidasiga zid tarzda, ishsizlikning kamayishiga ko'maklashadi. Aholining ish bilan bandligi, avvalo, multiplikatsiyalash samarasiga olib keladigan investitsiyalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi"³¹.

3. Ish bilan bandlikning monetarizm nazariyasi. (M.Fridman, R.Lukas, J.Mut va boshqalar). 1970 yillarda keynschilar nazariyasi ish bilan bandlik holatlarini tushuntirib bera olmadi, chunki shu davrda rivojlangan mamlakatlarda to'la ish bilan bandlik sharoiti o'rnatilgandi va uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sishni ta'milash lozim edi. Yalpi talabning o'sishi esa faqatgina inflyatsiyani oshirar edi. Inflyatsiya esa qisqa muddatli tebranishlarga olib kelar edi va ishsizlik paydo bo'lardi. Buni oldini olish uchun Milton Fridmen (1912 y.t.) monetarizm siyosatini taklif qildi. (2-rasm)

Bu nazariyada M.Fridmanning ishsizlikning tabiiy darajasi mavjudligi to'g'risidagi xulosasi muhim metodologik ahamiyatga egadir. Bu daraja mehnat bozori sharoitlari bilan qat'iy chegaralab qo'yilgan va davlat siyosati bilan o'zgartirilishi mumkin emas. Agar davlat ish bilan bandlikni uning tabiiy darajasini talabni ko'paytirishning an'anaviy-byudjet va kredit usullari bilan oshirmoqchi bo'lsa, bu choralar qisqa muddat samara keltirib, faqat narh-navo ko'tarilishiga olib keladi³².

³¹ Абдурахмонов Қ.Х., Меҳнат иқтисодиёти. – Тошкент: Меҳнат нашриёти, 2009, 31-бет.

³² Friedman M. Money and Economic Development/ M.Friedman// 1973. №4. –С.70 .



1.1.2-rasm. Ish bilan bandlikning monetarizm siyosati³³

Bu nazariyaga ko'ra pul massasi ish bilan bandlik hajmi o'sishiga proporsional ravishda oshirilib borish kerak. Pul massasining oshishi sur'ati esa real yalpi ichki mahsulot hajmi o'sish sur'atiga teng bo'lishi darkor. Masalan, iqtisodiy o'sish 5%ni tashkil qilsa, ya'ni yalpi ichki mahsulot Y^* dan Y^{*} gacha oshsa, unda pul massasi ham 5%ga oshirilishi kerak, ya'ni buning natijasida yalpi talab AD holatidan AD' holatiga siljiydi. Narx esa, ya'ni R - o'zgarmas bo'lib qoladi. To'la ish bilan bandlik holati ikkala holatda ham saqlanib qoladi. Agar pul massasi oshirilmasa unda inflyatsiya ro'y beradi.

Monetarizm siyosati faqatgina to'la ish bilan bandlik sharoitlari o'rnatilgandagina qo'llanishi mumkin.

4.*Institutsionalchilar nazariyasi* (T.Veblen, J.Gelbreyt, R. Gorodon, D.Kommons va boshqalar). Institutsionalchilar mehnat bozorini iqtisodiyotning eng muhim sektori deb hisoblab, u iqtisodiy tizimda markaziy o'rinni egallashini ko'rsatadilar. Jumladan, T.Veblen bozorning tarixiy rivojlanishini tahlil etar ekan, industrial jamiyat taraqqiy etishi bilan raqobat kurashi markazi tovarlar va xizmatlar bahosi uchun kurash sohasidan mehnat bahosi va sharoiti uchun kurashish sohasiga ko'chishini aniqlagan³⁴.

³³ К.Р.Макконел, С.Брю. Экономикс: принципы, проблемы и политика. /Перевод с англ. –М.: ИНФРА-М, 2006. -940 с.

³⁴ Веблен Т. Теория праздного класса. – М.: Прогресс, 1984. –С.56.

Institutsionalchilar fikriga ko'ra, mehnat bozoridagi talab va taklifning nomutanosibligini ijtimoiy nazorat tizimini o'rnatish orqali hal etish mumkin. Davlat esa mehnat bozoridagi rejali siyosatini mehnat bozorida amal qiladigan institutlar orqali amalga oshirishi zarur. J.Gelbreyt hisoblashicha, bevosita mehnat bozorida eng muhim ijtimoiy muammolar hal etiladi, shuning uchun davlat mazkur jarayonda ishtirok etishi shart, zero ko'plab odamlar ishdan va tirikchilik kechirish uchun zarur ne'matlardan mahrumlar. Davlat ish bilan bandlik darajasi yuqori bo'lishidan manfaatdordir, chunki bu holat byudjetning daromad qismini ko'paytiradi va mamlakat boyligi ko'payishini ta'minlaydi³⁵.

Institutsional maktab vakillari fikricha, shaxs erkin hamda kasb malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladigan ijtimoiy tartib o'rnatish uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosat quyidagi vazifalar hal etilishini ta'minlashi zarur:

- qobiliyatiga muvofiq tanlagan kasbga o'qish uchun teng imkoniyat yaratish;
- mehnat jarayoniga qo'shilish, malaka oshirish, xizmat vazifasida ko'tarilish uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- mehnatni rag'batlantirish xodim va uning oilasi munosib turmush kechirishini ta'minlaydigan darajada bo'lishi;
- xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga solish.

Ish bilan bandlik nazariyalari insoniyat tarixining turli davrlarida o'z o'rniga ega bo'lib, amaliyotda qo'llanilib keldi. 1930- yillardagi Buyuk inqirozdan so'ng AQShda keynschilarning ish bilan bandlik nazariyasi amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Masalan, AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt mamlakatni chuqur iqtisodiy inqirozdan olib chiqish maqsadida keynschilarning ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirdi. Hususan, 1946 yildagi "Bandlik to'g'risidagi qonun"da keynschilarning ish bilan bandlik nazariyasi g'oyalari o'z aksini topdi. Mazkur qonunda barcha ishlashni istagan band bo'lmagan shaxslarni ish bilan ta'minlash

³⁵ Гэлбрайт Д.. Экономическая теория и цели общества. -М.:Наука. 1979. –С.406 .

uchun hamma imkoniyatlardan foydalanish, ayniqsa, investitsiyalarni ko'paytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish to'g'risida ko'rsatmalar mavjud.

1970 yillarda AQShda yuqori inflyatsiya darajasi yuqori ishsizlik bilan hamnafas bo'la boshladi. Bu sharoitda ish bilan bandlikning monetarizm nazariyasi qo'l keldi. Nafaqat AQShda, balki boshqa rivojlangan mamlakatlarda byudjet taqchilligini kamaytirish bo'yicha siyosat olib borildi. Hattoki AQSh Konstitutsiyasiga byudjetni balanslashtirish lozimligi to'g'risida qo'shimchalar kiritildi. Angliyada esa M.Tetcher boshchiligida ish bilan bandlikning monetarizm siyosati amalga oshirilib, barqaror vaziyat yuzaga keldi.

Gap shundaki, Xalqaro Valyuta Fondi iqtisodchilari monetarizm siyosatini iqtisodiy qoloq mamlakatlar hamda MDH mamlakatlari uchun tavsiya qilgandi, lekin tajriba shuni ko'rsatdiki mazkur taklifni inobatga olgan mamlakatlarda ijobiy iqtisodiy natija kutilmadi.³³

Aksincha, masalan, O'zbekiston o'z islohotlar modeliga tayangan holda islohotlarni amalga oshirdi. Bu modelga ko'ra bosqichma-bosqich institutsional o'zgarishlar, hamda iqtisodiy erkinlashtirish amalga oshirildi. Natijada O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz chuqurlashmadi va 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish ta'minlandi.

Hozirgi paytda, o'ylaymizki, O'zbekistonda ish bilan bandlikning keyns siyosatini amalga oshirish uchun yaxshi fursat tug'ilgan. Yangi ish o'rinlarini yaratish asosan ijtimoiy va bozor infratuzilmasida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki mazkur soha barcha iqtisodiy tarmoqlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

1.2. Aholining ish bilan bandlik tarkibi tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni


³³ Рынок труда: Учебное пособие. Коллектив авторов под рук. акад. Абдурахманова К.Х.— Т.: ТФПЭА, 2009. с. 33.

“Ish bilan band aholi” deganda yozma mehnat shartnomasi yoki og’zaki kelishuv asosida yollangan shaxslar, hamda mustaqil holda yollanmasdan ishlaydigan ish beruvchilar, fermer xo’jaligi yoki shirkat a’zolari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oila xo’jaligi yoki kasanachilik bilan shug’ullanuvchi mehnatga layoqatli aholi tushuniladi. Ish bilan band bo’lgan aholiga mehnatga layoqatli yoshda bo’lgan mehnatga layoqatli erkak va ayollar kiradi va ular quyidagi rasmda o’z ifodasini topgan.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tarkibida ish bilan band aholining o’rni o’ziga xos bo’ladi (3-rasm). Turli hududlarda iqtisodiy faol aholining taxminan 60,0%-95,0% ni iqtisodiy ahvoldan kelib chiqqan holda ish bilan band aholi tashkil qiladi.

Iqtisodiy faol aholi o’z navbatida ish bilan band aholi va ishsizlarni o’z ichiga qamrab oladi. Demak, ishsizlar sonining kamayishi ish bilan band aholining o’sishiga olib keladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “ish bilan band aholi tarkibi” tushunchasini ta’riflashda turli xil yondashishlar uchratiladi. Masalan, L.S. Sbitova ta’rifi bo’yicha, ish bilan band aholi tarkibi mehnatning ijtimoiy bo’linishi natijasida aholining mehnat turi bo’yicha mutanosib ravishda taqsimlanishidir.³⁴ Ammo, bu ta’rif Sho’rolar davriga to’g’ri keluvchi rejali iqtisodiyot sharoitidan kelib chiqqan holda berilgan.



1.1.3-rasm. Mehnatga layoqatli aholi tarkibida ish bilan band aholining o'рни³⁶

Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiya darsliklarida mualliflar samarali ish bilan bandlikni ifodalash maqsadida turli yondashuvlarni olg'a surishadi. Masalan, aholining ish bilan bandligining samarali tarkibi ishsizlik darajasi pasayishiga olib kelishi zarur, demak, samarali tarmoqlararo, kasblar guruhlari ish bilan bandlik tarkibi – to'la ish bilan bandlik darajasiga olib keladi.³⁵

Ishchi kuchining faoliyat turi bo'yicha bo'linishi asosan shakllangan iqtisodiyot tarkibi bo'yicha aniqlanadi. Ayni damda tadqiqotchi izlanuvchilar ish bilan bandlik va ijtimoiy ishlab chiqarish o'rtasida "kuchli aks ta'sir" mavjud deb ta'kidlashishadi. Rossiyalik iqtisodchi olim S.A. Kuzmin fikricha, samarali ishlab chiqarishning yaratilishini har hil sinfdagi ishchilar o'rtasidagi muhim munosabatlarni ta'minlab turuvchi ishchi kuchisiz tasavvur qilish qiyin. Demak, bunday ish bilan bandlik tarkibi material-moddiy tarkibning o'zgarishini aks ettiradi³⁶.

Ish bilan bandlikning samarali tizimi ayni paytda oddiy mavjud sohalardagi ishchi kuchi unumdorligining o'sishi hisobiga ish kuchining qisqarishini ta'minlaydigan mexanizmning ishlashini tahmin qiladi. Aynan shu mexanizm

³⁶ Манба: Абдурахмонов Қ.Х., Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. – Тошкент: Меҳнат нашриёти, 2013, 84-бет.

³⁵ Адамчук В.В., Ромашов О.В., Сорокин М.Е. Экономика и социология труда: Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2009. – 407с.

³⁶ Кузьмин С.А., Занятость: стратегия России. - М.: Эдиториал, УРСС, 2001. С.32-33

sohalar sonining o'sishini, mahsulotning turli – hilligini doimiy o'sishini va shu bilan bir qatorda hayot darajasining o'sishini ham ta'minlab beradi.³⁷

S.A. Kuzmin tarmoqlar mehnat unumdorligidan kelib chiqqan holda hisoblangan vaznga solingan o'rtacha xalq xo'jaligi mehnat unumdorligini - tarmoqlararo ish bilan bandlik tarkibining samaradorligi yalpi ko'rsatkichi deb hisoblaydi.³⁸

Ammo bizning nazarimizda aholini ish bilan bandligi tarkibi tushunchasini atroflicha yoritilganini inobatga olgan holda, ish bilan bandlik sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar tushunchasini ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada, mualliflar "aholini ish bilan bandligi tarkibi o'zgarishi», "aholini ish bilan bandligi tarkibi qayta tuzilishi", "aholini ish bilan bandligi tarkibi transformatsiyasi" tushunchalaridan foydalanishadi.

Qayta tuzilish deganda tizimli transformatsiya tushuniladi, masalan, iqtisodchi olim B. Sokolin o'z tadqiqotlarida «qayta tuzilish – bu iqtisodiy tuzilmaning butun yoki bir qismining, elementining maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishidir» deya ta'rif beradi.³⁹

Boshqacha qilib aytganda, bu – aholining ish bilan bandlik tarkibidagi siljishlar dinamikasi transformatsiyaning sinonimidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifda ish bilan bandlikning qayta tuzilishi ya'ni jarayon sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa iqtisodiy faol bo'lgan aholining faoliyat turlari, iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha qayta taqsimlanishiga va o'zgarishlarga olib keladi.

O'tish davri iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan bandligi tarkibining o'zgarishini o'rganishda faqatgina quyidagi kategoriyalar muhim ahamiyat kasb etgan:

- tarmoqlar bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibi;
- kasblar guruhlari bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibi;

³⁷ Зябликов Д.В. Теоретические аспекты эффективной занятости населения. // Электронный журнал «ИССЛЕДОВАНО В РОССИИ», 2004. <http://zhurnal.ape.relarn.ru/articles/2004/192.pdf>

³⁸ Кузьмин С.А. Занятость: стратегия России. - М.: Эдиториал, УРСС, 2001. С.32-33.

³⁹ Соколин Б. Кризисная экономика России: рубеж тысячелетий - СПб.: «Лики России», 1997. - С.69.

- mulk shakli bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibi;
- korxona turi bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibi.

Ayrim olimlar o'z ilmiy izlanishlarida ish bilan bandlik tarkibini ko'yidagi alomatlar bo'yicha tasniflaydilar:⁴⁰

- hududlar bo'yicha;
- tarmoqlar bo'yicha;
- kasblar bo'yicha.

Xuddi shunday nuqtai-nazarni O'zbekistonlik iqtisodchi olim Abduraxmonov Q.X. ishlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, uning fikricha: "Ish bilan bandlik tarkibi – bu ish bilan bandlik tizimi elementlari va ular o'rtasidagi barqaror aloqalarni tashkil qiluvchilar yig'indisi bo'lib, turli gurux va kategoriyadagi ish bilan bandlarning umumiy ish bilan band bo'lganlardagi nisbati bilan belgilanadi".⁴¹

Ish bilan bandlik darajasi va tarkibini aholining ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kelishi, milliy va xududiy mehnat bozori doirasida ish o'rinlari va mehnat resurslari o'rtasidagi muvozanat mezonlari bo'yicha baholash mumkin.

Tadqiqotlarning aniq ijtimoiy-iqtisodiy va sotsiologik maqsadlaridan kelib chiqib, ish bilan bandlik ishchilarning malakaviy, kasbiy, milliy yoki boshqa tarkiblaridan kelib chiqib tahlil qilinishi mumkin.

Respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun mohiyatlaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, hozirgi kunda ish bilan band aholi tarkibini quyidagi alomatlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq (4-rasm):

- xududlar bo'yicha;
- tarmoqlar bo'yicha;
- mulk shakli bo'yicha;
- malaka darajalari bo'yicha;
- kasblar guruhlar bo'yicha;


⁴⁰ Одегов Ю.Г. Экономика труда: Учебник — М.: Волтерс Клувер, 2011. С. 666.

⁴¹ Рынок труда: Учебное пособие. Коллектив авторов под рук. акад. Абдурахманова К.Х. – Т.: ТФРЭА, 2009. с. 83.

- demografik belgilar bo'yicha.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ish bilan bandlikning tarmoq tarkibi eng ko'p ta'sir ko'rsatib, uning shakllanishi u yoki bu mamlakat rivojlanishida aniq bir tarmoqning o'rni va joylashuviga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistondagi hududlarning iqtisodiy tarmoqlar ixtisoslashuvi tabiiy-iqlim xususiyatlari, har bir hududda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajalari, ishchi kuchlarining sifat jihatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga halqaro mehnat taqsimoti ham ish bilan bandlikning tarmoq tarkibiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir milliy mehnat bozori halqaro mehnat bozoriga qanchalik faol integratsiyalashsa shunchalik kuchli bo'ladi.



1.1.4-rasm. Ish bilan band aholi tarkibi tasnifi³⁷

³⁷ Манба: Муаллиф томонидан тузилган.

Milliy iqtisodiyot va ish bilan bandlik tarkibining shakllanishi nuqtai-nazaridan har qanday mamlakat uchun tabiiy-iqlim sharoitlaridagi hududiy farqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular erishilgan iqtisodiy o'sish darajasi bilan birgalikda hududlarning iqtisodiy istiqbollarini belgilab beradi. Buning natijasi sifatida esa, viloyatlarning xo'jalik ixtisoslashuvini ko'rish mumkin.

Mamlakat xududlarining tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvi, turmush darajasidagi va aholining migratsion harakatchanligidagi farqlar ta'sirida ish bilan band aholi mamlakatning iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanayotgan hududlarida ko'proq yig'iladi.

Ish bilan bandlar tarkibining demografik belgilari – jins, yosh, oilaviy ahvol, millat va hokazolar bilan tavsiflash mumkin. Ushbu belgilar inson umri davomida o'zgarib boradi. Shuning uchun ish bilan bandlar tarkibida odamlarning yosh, jins tarkibi, oilaviy ahvol kabi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi.

Aholi soni o'sishining umumiy xususiyatini tabiiy o'sish belgilagani xolda bu jarayon ish bilan bandlar tarkibiga ham o'z ta'sirini o'tqazadi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori sur'atlari, agar bu jarayon o'lim darajasi past sharoitlarda kechayotgan bo'lsa, qulay demografik vaziyat sifatida baholanadi. Biroq qator mamlakatlarda tug'ilish tartibga solinmasligi oqibatida demografik vaziyat keskinlashadi, shu mamlakatning mehnat bozorida yoshlarning ish bilan ta'minlanishi muammolari paydo bo'ladi.

Ish bilan bandlik tarkibi keng ma'noda mamlakat iqtisodiy o'sishi darajasining ob'ektiv indikatori bo'lib hisoblanadi, hamda milliy mehnat bozorining rivojlanish darajasi, ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasidagi salbiy jarayonlarning mavjudligi haqidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Ma'lumki, davlatning aholini ish bilan ta'minlash siyosati – to'la ish bilan bandlik darajasiga erishishni maqsad sifatida belgilaydi, lekin bu maqsadning amalga oshishi o'tish davri iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar qanchalik samarali amalga oshishidan bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, aytish joizki ish bilan bandlikni qayta tuzilishini ta'minlanishida davlatning o'рни juda katta, chunki davlat, birinchidan, mulk shaklini o'zgarishining

islohotchisi, ikkinchidan, makro va mikroiqtisodiy siyosatni amalga oshiradi va tarmoqlarning rivojlanishiga ta'sirini o'tkazadi, uchinchidan, institutsional sharoitni ham davlat yaratadi.

Demak, aholini ish bilan bandligining qayta tuzilishini boshqarish – davlat tomonidan ish bilan band aholi tarkibi samarali o'zgarishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning majmuasi, muntazam olib boriladigan aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

1.3. Ish bilan bandlik darajasi va uning tarkibini aniqlashning uslubiy jihatlar

Hozirgi vaqtda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat tomonidan mehnat munosabatlarni tartibga solish, mehnat sharoiti va to'lovi, turli xil xavf-xatardan ish haqini yo'qotishni kompensatsiyalash, ishchilarni huquqiy himoyalashni ta'minlash zarurligi bilan bog'liqdir. Masalan, XVII-XVIII asrlarda ro'y bergan sanoat inqilobigacha rivojlangan mamlakatlar aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bilan band edi. Barcha sohalarda ishlab chiqarishning rivojlanishi qishloq xo'jaligida ishchi kuchining zichligining tarixi bilan bog'liq. Ijtimoiy mehnat taqsimlanishi jarayonining chuqurlashuvi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning ayrim operatsiyalarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan yangi mustaqil sohalarning vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida foydalanilgan ishchi kuchi boshqa tarmoqlarga qayta taqsimlanadi. Endi tadbirkorlar va iste'molchilar asbob-uskuna, ba'zi iste'mol mollarni qishloq xo'jaligidan olishmaydi, balki bevosita shu mashinalarni va iste'mol buyumlarini yaratuvchi sohalardan oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab muayyan chegaragacha o'sib boradi, so'ngra esa to'xtab qoladi. Masalan, meva-sabzavot mahsulotlariga talab, bug'doyga bo'lgan talab daromad oshgan sari oshib boradi, ammo oshish

dinamikasi pasayuvchi bo'ladi. Bunday mollarni "hayotiy ehtiyojlarni qondiradigan mollar" deb atashadi. Odamlar hayotiy ehtiyojlarini qondirgandan so'ng, hayotiy ehtiyojlarni qondiradigan mollarga talabni to'xtatib, yangi qimmatbaho mahsulot va xizmatlarga talabni oshirishadi (avtomobil, turizm va hokazo). Natijada an'anaviy tarmoqlarda (qishloq xo'jaligi) ishlab chiqaruvchilar talab o'sishining to'xtashiga duch kelishadi va xarajatlarni kamaytirish orqali daromad topishga kirishishadi. Buning natijasida, masalan, qishloq xo'jaligi sohasida ish jarayoni mexanizatsiyasi amalga oshadi, qo'shimcha ishchi kuchi qishloq xo'jaligidan siqib chiqariladi. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining oshishiga va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi sonining kamayishiga olib keladi.

1930 yildan 1960 yilgacha AQSh da qishloq xo'jaligidagi ishchilar soni 2,7 barobarga qisqartirildi, ya'ni – 4,3 mln kishidan 1,6 mln kishigacha. 1960 yildan 1985 yilgacha esa 1,8 barobarga qisqartirildi, ya'ni – 1,6 mln kishidan 0,9 mln kishigacha qisqartirildi. Yaponiyada esa 1986 ta oilaviy fermer xo'jaliklardagi ish bilan bandlarning soni 3,8 barobarga qisqardi – ya'ni 8,3 mln kishidan 2,4 mln kishigacha qisqardi (1-jadval). Ishchi kuchini qayta taqsimlash faqat, ishchi kuchini qishloq xo'jaligida yoki boshqa sohalarda tejalgandagina sodir bo'libgina qolmaydi. Balki, bunday qayta taqsimlanish qaysi sohada bo'lmasin barcha holatlarda sodir bo'ladi.⁴²

Tahlillar shuni ko'rsatyaptiki, qayta ishlash sektorlarida band bo'lgan ishchilar soni qisqartirilsa, xizmat ko'rsatish sohasida ishchilar bandligi oshadi (1-jadval).

Hisob-kitoblarga qaraganda, olinayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini ishlovchilar sonini 1,5–2 million kishidan oshirmagan holda ham olish mumkin. Demak biz ishlab chiqarishga mutlaqo zarar etkazmagan holda 1,5 millionga yaqin kishini bu sohadan ozod etishimiz mumkin. Agar biz qishloq xo'jaligidagi bu ortiqcha ishchi kuchidan to'laqonli va unumli foydalanib, ularni

⁴² Рязанцев СВ. Мировой рынок труда и международная миграция: Учебное пособие. — Москва; ЗАО «Издательство «Экономика», 2010. С. -32.

iqtisodiyotning ishchi kuchiga ehtiyoj sezayotgan tarmoqlariga jalb qilsak, mehnat unumdorligining oshishiga, o'z navbatida, iqtisodiy yuksalishga erishamiz.

1.1.1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi, % (2010 y)³⁸.

Mamlakatlar va hududlar	Jami ish bilan bandlar	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish, transport va aloqa	Savdo, umumiy ovqatlanish, moliya, uy-joy kommunal xo'jaligi	Boshqalar
Amerika Qo'shma Shtatlari	100	0,7	13,8	4,9	78,4	2,2
Yaponiya	100	8,0	23,6	15,0	50,2	3,2
Germaniya	100	4,5	30,2	12,5	45,0	7,8
Frantsiya	100	7,5	22,8	14,0	46,9	8,8
Buyuk Britaniya	100	2,1	24,2	14,9	48,0	10,8
O'zbekiston	100	25,5	13,2	12,1	12,7	36,5

Hozirgi kunda xizmat sohasida borgan sari yangi mehnat o'rinlari tashkil etilmoqda va bu soha iqtisodiyotda yangi sektor sifatida rivojlanmoqda. Natijada, YaMMda sanoat va qishloq xo'jaligining ulushi pasayib, ularning o'rniga xizmat ko'rsatish sohasining ulushi o'smoqda. Ammo bu – rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti “deindustrializatsiya qilinadi” degani emas.

Agar sanoatning ulushi YaMMda qisqarsa ham uning jon boshiga to'g'ri keladigan absolyut qiymati o'sadi va xizmat sohasidagi ishchilarning ko'payishi faqatgina mehnatning deindustrializatsiya bo'layotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlardagi sanoat va qishloq xo'jaligining YaMMdagi ulushining kamayishi - shu sohalarning samaradorligidan dalolat beradi, ya'ni bu sohada xarajatlar kamaygan bo'ladi.

Oxirgi 25 yil davomida ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qayta ishlovchi sanoatda ish bilan bandlik ulushining qisqarishi kuzatilmoqda. Masalan, AQShda

³⁸ Манба: ILO. Year Book of Labour Statistics.-Geneva, 2011. Page: 240-243, 274-279, 340-341, 336-339, 386-389. Ўзбекистон Иқтисодиёти. 2011-йил, 8-сон 28-бет.

qayta ishlovchi sanoatda ish bilan bandlikning tig'iz pallasi 1965 yilda yuzaga keldi (28%). 1990 yillarning o'rtasiga kelib bu ko'rsatkich 16% ga tushdi. Yaponiyada sanoatda ish bilan bandlik ulushining kamayishi 1973 yilda boshlandi. 1990 yil o'rtalarigacha (27,0% dan 23,0% gacha) qisqardi. Shu bilan birga, AQShda xizmat ko'rsatish sohaslarida ish bilan bandlik ulushi 1960 yilda 56,0% dan 2009 yilgacha 78,4% gacha oshdi. Qayta ishlash sanoatiga qaraganda xizmat ko'rsatish sohasining mehnat unumdorligi sezilarli darajada sekin o'sdi, bu esa xizmat ko'rsatish sohasining narxлари yanada tezroq oshishiga, sanoat sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxining pasayishiga olib keldi.

Kasb va malaka bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibining shakllanishi. Endi biz etakchi mamlakatlardagi ish bilan bandlikning o'zgarib borayotgan kasbiy-malakaviy tarkibning shakllanishini tahlil etamiz. Undan oldin bir narsani ta'kidlash lozimki, tarix davomida "ishchi kuchi malakasi" "ishchi kuchi miqdori" tushunchasidan zarurroq bo'la boshladi. Yana bir narsani ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos ish bilan bandlik sohasida kasbiy-malakaviy tarkib vujudga keldi. Uchinchidan, ishchi kuchi malakasi oshishi band bo'lgan ishchi kuchi miqdorining qisqarishiga, demak tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Boshqaruvchi, mahoratli kasb egalari va texniklar mutaxassisligi barcha mamlakatlarda deyarli ommaviylashib bormoqda. XX asr oxiridan boshlab asosiy e'tibor ishlab chiqarishni «strategik» boshqarish (yangi texnologiyalarni avtomatlashtirish tizimi), tashkiliy strukturalarni qayta qurish, tadbirkorlik, inson resurslarini boshqarish va kooperativ shakllantirish muammolariga qaratilgan. Shu bilan birga u yoki bu kasblarning nufuzliligi va talabgorligini baholashda ham ma'lum mamlakatlararo hususiyatlar mavjud. (2-jadval)

1.1.2-jadval. AQSh va Rossiyada eng nufuzli va eng ko'p haq to'lanadigan kasblarning qiyosiy tahlili³⁹

³⁹ Манба: Рязанцев СВ. Мировой рынок труда и международная миграция: Учебное пособие. — Москва: ЗАО «Издательство «Экономика», 2010. С. — 34.

AQSh	Rossiya
Eng nufuzli kasblar	
1. O't o'chiruvchilar (57%)	1. Yurist (28%)
2. Olim (56%)	2. Iqtisodchi
3. Vrach (53%)	3. Moliyachi
4. Tibbiyot hamshirasi va o'qituvchi (52%)	4. Menedjer
5. Harbiy va politsiyachi (46%)	5. Biznesmen
6. Fermer (41%)	6. Vrach
7. Ruhoniy (40%)	7. Davlat hizmati xodimi
8. Injener (40%)	8. Programmist
9. Kongressmen (28%)	9. Buxgalter
10. Jurnalist (18%)	10. shou-biznes xodimi
11. Akter (15%) Kamroq obro'ga ega bo'lgan kasblarga rielter, birja brokeri va bankir kiradi (6%)	
Eng ko'p haq to'lanadigan kasblar	
1. Vrach-anesteziologlar (yiliga 193 ming dollar)	1. Bankir
2. Xirurglar (yiliga 191,4 ming dollar)	2. Biznesmen
3. Ortodontologlar (yiliga 185,3 ming dollar)	3. Yurist
4. Stomatologlar	4. Direktor (menedjer)
5. Bola tug'ilishi bilan bog'liq vrachlar	5. Davlat hizmati xodimi
	6. Iqtisodchi (moliyachi)
10. Top-menedjer (yiliga 151,4 ming dollar)	7. Vrach
11. Pilot (yiliga 148,6 ming dollar)	8. Buxgalter
Yigirmatalik sanoatdagi injiner-menedjerlar va advokatlar bilan tugaydi. 25-o'rinda yiliga 106,2 ming dollar haq oluvchi moliyaviy menedjerlar turadi	9. Programmist
	10. Shou-biznes hodimi

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, AQShda ko'proq haq to'lanadigan kasblar u yoki bu xolda inson salohiyatini shakllantirish bilan bog'liq ekan. Rossiyada esa aksincha. Head Hunter agentligining ma'lumotlariga ko'ra halqaro mehnat bozorida yaqin o'n yilda muhandislar, axborot texnologiyalari sohasi

mutaxassisleri va kompyuter ta'minoti ishlab chiquvchilari, nano texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar, elektronika va biotexnologiyalar bo'yicha mutaxassislar, marketologlar, hizmatlar, logistika, ekologiya, tibbiyot, kimyo sohalari bilan bog'liq mutaxassislar talabgor bo'ladilar.

Hozirgi paytda Rossiyada o'z kasbi bo'yicha faqatgina har beshinchi bitiruvchi ishga joylashishi mumkinligi qayd etilgan.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiya o'zining mutaxassisliklar tarkibini ancha yaxshiladi. Bu erda menejerlar ulushi (20 yil mobaynida) 46,2% ga o'sdi va malakali ishchi, hamda texnik ishchilar soni 91,4% ga o'sdi. Buyuk Britaniyada ham menejerlar soni 96,3% ga o'sdi, lekin mutaxassislar hamda texnik ishchilar soni 5,2% ga kamaydi. Shunday qilib, biz menejer, mahoratli kasb egalari va texnik ishchilar guruhida ish bilan bandlik oshishi sur'atlari xar xilligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, mazkur mamlakatlarning boshlang'ich vaziyati har xil bo'lganligidir. Ammo umuman olganda barcha mamlakatlarda mazkur kasblar guruhining umumiy ish bilan bandlikdagi ulushi oshishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy samaradorlikning oshishi, iste'mol mollari sonining va turlarining ko'payishi insonlarning turmush darajasini ko'taradi va ular boyitdi. Bunga ijtimoiy yo'naltirilgan milliy xo'jalikning o'sishi ham sabab bo'ladi.

Shu tariqa, biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shunday xulosa qilsa bo'ladi – har bitta hududda, jamiyatdagi ishlab chiqarish har bir tarmoqda mehnat samaradorligini doimiy oshirishga asoslangan. Aholini samarali ish bilan bandligi sharoitidagina jamiyatning boyligi oshishi mumkin.

Mehnat samaradorligini oshirish ma'nosi alohida hududiy ishlab chiqarish doirasidan chiqib ketadi. Uning oshishi - mikrodarajadagi vaqtni tejash, xalq xo'jaligida, ya'ni makrodarajada ko'p sonli tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning shakllanishi uchun fundament, asos bo'la oladi. Yangi tarmoqlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishi esa chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi va hilma-hilligining ko'payishi omilidir va o'z o'zidan – jamiyat boyligining, ijtimoiy hayot darajasining oshishidir.

Aholini ish bilan bandligi tarkibi shakllanishida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'zni. Aholini samarali ravishda ish bilan ta'minlash tizimini rivojlanishi zahirida - ishlab chiqarishining o'sishi va har bir band odamning samarali ishlashining o'sishi yotibdi. Biroq, ishchilarning tajriba va mahorat darajasini oshirmasdan turib mehnat unumdorligini oshirib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotdagi mahoratli ishchilarning qanchalik ko'p bo'lishi shunchalik mehnat unumdorligini va shunchalik rang-barang bo'lgan xizmat va mahsulotlarning ko'p bo'lishini anglatadi. Iqtisodiyotning rivojlanishini aniqlovchi asosiy omil bugungi kunda ishchi kuchining sifatidir.

Hozirgi kunda tajribali mutaxassisga, ularning mahoratini oshirishga sarflanadigan xarajatlar butunligicha insoniy xarajatlar sifatida qaralmoqda. Unga to'la asos bilan ishchilar sog'lig'ini ta'minlashga sarflanadigan xarajatlar ham kirib ketadi. Kuzatishlarga asosan, AQShdagi ishchilarni tajribali mutaxassis ishchilar guruhiga kiritish uchun ishchi kamida o'rta maktabda tahsil olgan bo'lishi kerak ekan. Ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, 30 ta ommaviylashib borayotgan mutahassisliklar orasida 2/3 qismidan ko'prog'i, hamda shu 30 ta kasb egalarining yarmi 1990 yilda o'rta ta'lim muassasalarida tahsil olgan.

T.Shul'ts Amerikadagi insoniy zahiralarni investitsiyasiga son jihatdan birinchilardan bo'lib baho berdi. Oxirgi 40 yil ichida ta'limga investitsiya kiritish 20 barobarga oshdi. 1997 yilda byudjetdan ta'limga ajratilgan sarflar 450 mlrd. dollar atrofida edi. Mutaxassislarning malakasi va tajribasini oshirishga qaratilgan investitsiya jismoniy kapitalga kiritilgan investitsiyadan 3 barobarga ko'p bo'ldi (440 mlrd. dollar). Insoniy resurslarga byudjetdan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minotga jami 1 trln. dollarga yaqin mablag' sarflandi.

Insoniy kapitalga bo'lgan investitsiya hajmining o'sishi, YaIM ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish bilan chambarchas bog'liq. Amerika iqtisodchilarining hisob kitobiga qaraganda 1890 yilda YaIM ning 50% - homashyo, mineral va energetik zahiralarga to'g'ri kelgandi. 100 yildan keyin ularning YaIMdagi ulushi 10,0% dan ham oshmadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot XX asrda ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishni samarali oshishining asosiy manbai bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy-texnik taraqqiyot u yoki bu ko'rinishida mehnat unumdorligining o'sishida namoyon bo'ladi. Bu omillarni ta'sirini AQSh milliy daromadi o'sishining uchdan biri ilmiy-texnik taraqqiyot omiliga to'g'ri kelganligi bilan tushuntirish mumkin. Evropaning rivojlangan mamlakatlari va Yaponiya urushdan keyingi 10 yillikda iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnik taraqqiyot hisobiga, mehnat va kapitalni samarali joriy qilish natijasida erishishdi.

Aksincha XX asrning ikkinchi yarmi tarixida rivojlangan mamlakatlarda tabiiy boyliklarni, mehnatni qo'shimcha ravishda jalb qilish natijasida davomli iqtisodiy o'sishga misollar yo'q. Qanchalik miqdorda u yoki bu omilni ko'proq kiritilishi, shunchalik uning taqdirlanishini belgilaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston mamlakatlarida sanoat ulushining YaIMda pasayib ketishi boshqa MDH mamlakatlaridek yuqori bo'lmadi. Qiziqarlisi shundaki, agrar sektorining YaIMdagi ulushi O'zbekistonda va Qozog'istonda ozgina kamaygan bo'lsada, Markaziy Osiyoning qolgan qator mamlakatlarda u keskin ravishda oshib ketdi (2-jadval).

2-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholini ish bilan bandligi tarkibi o'zgarishi, foizda⁴⁰

Mamlakatlar va sohalar	Y illar			
	1990	1995	2000	2010*
Qozog'iston				
Qishloq xo'jaligi	23,0	22,0	22,0	20,0
Sanoat va qurilish	32,0	22,0	18,0	19,0
Xizmatlar	45,0	56,0	60,0	61,0
Qirg'iziston				
Qishloq xo'jaligi	33,0	46,0	53,0	54,0
Sanoat va qurilish	28,0	16,0	11,0	9,0
Xizmatlar	39,0	38,0	36,0	37,0
O'zbekiston				
Qishloq xo'jaligi	39,0	41,0	36,0	27,0

⁴⁰ Манба: С.В.Жуков, О.В.Резникова. Центральная Азия в социально-экономических структурах современного мира. - Москва: Московский общественный научный фонд, 2001; *мamlakatlarнинг расмий статистик маълумотлари асосида ҳисобланган.

Sanoat va qurilish	24,0	19,0	21,0	23,0
Xizmatlar	37,0	40,0	43,0	50,0
Tojikiston				
Qishloq xo'jaligi	43,0	59,0	68,0	71,0
Sanoat va qurilish	22,0	14,0	10,0	10,0
Xizmatlar	35,0	27,0	22,0	19,0
Turkmaniston				
Qishloq xo'jaligi	42,0	45,0	48,0	50,0
Sanoat va qurilish	21,0	19,0	18,0	17,0
Xizmatlar	37,0	36,0	34,0	33,0

Bu holatni mamlakatlardagi rejali iqtisodiyotda qurilgan iqtisodiy tarmoqlarning parchalanishi va iqtisodiyotning tarkibi yangi vaziyatga moslashib borishidan dalolat beradi. Eng muhimi shundan iboratki, agar mamlakat rahbariyati hohlasa, u tarkibiy iqtisodiy siyosatni oqilona ravishda olib borishi mumkin va bunday keskin o'zgarishlar sur'atiga ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, O'zbekistonda 90-yillardan boshlab, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari davlat tomonidan qattiq nazoratga olindi. Narh-navoni erkinlashtirish, mulk shaklini o'zgartirish, valyuta bozorini shakllantirish kabi vazifalar asta-sekinlik bilan amalga oshirildi. Buning natijasida, 1990-2000 yillarda tarkibiy siljishlar deyarli sezilarli bo'lmadi va band aholining tarmoqlardagi ulushlari 3% dan ko'pga o'zgarmadi.

Shu bilan birga, Qozog'iston va Qirg'izistonda tarkibiy siljishlar intensiv sur'atda amalga oshdi, chunki bu mamlakatlarda ichki va tashqi iqtisodiy erkinlashtirish amalga oshirildi.

I - bob bo'yicha xulosa

Mazkur bobda ko'rib chiqilgan masalalarga yakun yasab quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Birinchidan, shuni ta'kidlash mumkinki, aholi ish bilan bandligining nazariy asoslari asrlar davomida shakllangan va rivojlantirilgan. Bu ta'limotda, asosan to'rtta: klassiklar, keynschilar, monetarchilar va institutsionalchilar maktablari farqlanadi.

Ish bilan bandlik nazariyalari insoniyat tarixining turli davrlarida o'z o'rniga

ega bo'lib, amaliyotda qo'llanilib keldi. Hozirgi paytda, o'ylaymizki, O'zbekistonda ish bilan bandlikning keyns siyosatini amalga oshirish uchun yaxshi fursat tug'ilgan. Yangi ish o'rinlarini yaratish asosan ijtimoiy va bozor infratuzilmasida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki mazkur soha barcha iqtisodiy tarmoqlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy adabiyotlarda "ish bilan band aholi tarkibi" tushunchasini ta'riflashda turli xil yondashishlar uchratiladi. Ammo bizning nazarimizda aholini ish bilan bandligi tarkibi tushunchasini atroflicha yoritilganini inobatga olgan holda, ish bilan bandlik sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar tushunchasini ta'riflash maqsadga muvofiq va unga ko'ra ish bilan bandlikning qayta tuzilishi ya'ni jarayon sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa iqtisodiy faol bo'lgan aholining faoliyat turlari, iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha qayta taqsimlanishiga va o'zgarishlarga olib keladi.

Respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun mohiyatlaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, hozirgi kunda ish bilan band aholi tarkibini xududlar, tarmoqlar, mulk shakli, malaka darajalari, kasblar guruhlari, demografik belgilar bo'yicha bo'yicha tasniflash mumkin.

Uchinchidan, horijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shunday xulosa qilsa bo'ladi – har bitta hududda, jamiyatdagi ishlab chiqarish har bir tarmoqda mehnat samaradorligini doimiy oshirishga asoslangan. Aholini samarali ish bilan bandligi sharoitidagina jamiyatning boyligi oshishi mumkin.

II bob. O'zbekistonda aholining ish bilan bandlik tarkibining hozirgi davrdagi holati.

2.1. Aholi ish bilan bandligining iqtisodiyot sohalari va tarmoqlar tarkibidagi o'zgarishlarga bog'liqligining qiyosiy tahlili

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining ish bilan bandligini oshirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida aholining ish bilan bandligi masalalari bo'yicha quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdilar: "Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda etakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda".⁴³

Bugungi kunda mamlakatda aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalashga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta'minlash uchun

⁴³ И. Каримов. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тadbirkorликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир. //“Халқ сўзи” газетаси. 2013 йил 19 январь, № 13.

ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.⁴⁴

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari sonining o'sishi tahlilini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz (3-jadval).

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganimizdek, doimiy aholi soni 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 6,8 %ga o'sgan, buning sababi so'nggi yillarda mamlakatda tug'ilish darajasining yuqoriligidir. Aholi soni o'sishi bilan bir qatorda mehnat resurslari soni ham 15 %ga o'sgan. Mehnat resurslari tarkibida mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi soni ham o'sib, 2013 yilda 2009 yilga nisbatan 17,1 %ni tashkil qilgan, ishlayotgan pensioner va o'smirlar soni 53 %ga kamaygan. Iqtisodiy faol aholi soni 2012 yilda 2008 yilga nisbatan (11,2 %ga, iqtisodiy nafaol aholi soni 26,3 %ga o'sganini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi aholini mehnatga bo'lgan munosabatining o'zgarishidir.

2.1.1-jadval. O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari tarkibining o'zgarishi (ming kishi hisobida)⁴¹

Ko'rsatkichlar	Y i l l a r					2013 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2009	2010	2011	2012	2013	+, -	%
O'rtacha doimiy aholi soni, yil oxiriga	27072,2	28001,4	29123,4	29555,4	29994,6	2922,4	110,8
Mehnat resurslari	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	17663,1	2018,2	112,9
Mehnatga layoqatli mehnat yoshidagilar	15458,7	15872,7	16263,6	17156,8	17550,2	2091,5	113,5
Ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar	186,2	250,9	240,6	153,0	112,9	-73,3	60,6
Iqtisodiy faol	11547,2	11916,6	12256,6	12541,5	12841,5	1294,3	111,2

⁴⁴ Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инкироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – Б.136-138.

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

aholi							
Iqtisodiy nafaol aholi	4012,8	4226,4	4469,4	4768,3	5068,3	1055,5	126,3

Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 60,7 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval. O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)⁴²

Hududlar	Y i l l a r					2013 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2009	2010	2011	2012	2013	+, -	%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	561,1	566,1	580,8	590,0	600,2	39,1	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	1176,4	129,1	112,3
Buxoro	729,1	748,5	768,1	784,7	804,5	75,4	110,3
Jizzax	360,6	396,6	381,6	392,4	403,0	42,4	111,8
Qashqadaryo	908,7	934,9	971,7	1003,8	1036,6	127,9	114,1

⁴² Манба: Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

Navoiy	396,7	404,6	408,0	413,4	418,6	21,9	105,5
Namangan	763,3	790,1	815,3	841,7	872,2	108,9	114,3
Samarqand	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	1314,5	162,5	114,1
Sirdaryo	304,1	318,9	320,0	327,5	334,8	30,7	110,1
Surxondaryo	722,5	744,6	784,5	817,8	843,0	120,5	116,7
Toshkent	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	1215,5	118	110,8
Farg'ona	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	1398,8	118,7	109,3
Xorazm	571,1	583,0	606,7	625,2	643,4	72,3	112,7
Toshkent sh.	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	1162,3	21,5	101,9
Respublika bo'yicha	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	12223,8	1188,4	110,8

2.1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2009-2013 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1188,4 ming kishiga yoki 10,8 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganligini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Andijon (12,3%), Jizzax (11,8%), Qashqadaryo (14,1%), Namangan (14,3%), Samarqand (14,1%), Surxondaryo (16,7%) va Xorazm viloyatlarida (12,7%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan.

Iqtisodiyotda ish bilan bandlik tarkibini o'rganishda biz ularning iqtisodiyot sohalari bo'yicha taqsimlanishini ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Umuman olganda ish bilan bandlar iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida faoliyat yuritishlarini kuzatish mumkin.(2.1.1-rasm)



2.1.1-rasm.Ish bilan band aholining iqtisodiyot sohalarida taqsimlanishi⁴³

2013 yil yakunlariga ko'ra ish bilan band aholi soni 12223,8 ming kishini tashkil etdi. Ulardan:

- iqtisodiyotning rasmiy sektorida - 7899,4 ming kishi;
- iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar 3994,3 ming kishini tashkil etdi;
- 330,1 ming kishi mehnat faoliyatini chet ellarda amalga oshirganlar.

Iqtisodiyotning rasmiy sektoridagi ish bilan bandlik dinamikasini ko'rish uchun 5-jadvalga murojat qilamiz.

2.1.4-jadval. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band aholi tarkibining dinamikasi (ming kishi hisobida)⁴⁴


Ko'rsatkichlar	Y i l l a r					2013- yil 2009- yilga nisbatan o'zgarishi	
	2009	2010	2011	2012	2013	+, -	%
Rasmiy sektorda ish bilan bandlar	6867,0	7022,8	7264,9	7787,4	7899,4	1032,4	115,0
<i>shundan:</i>							
-yirik korxonalarda	2589,4	2599,5	2541,3	2779,8	2523,1	-66,3	97,4
-kichik biznes va fermer xo'jaliklarida	2162,3	2206,9	2016,8	2338,4	2401,1	238,8	111,0
-yakka tartibda ro'yhatdan o'tib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar	147,4	375,6	628,8	698,4	735,3	587,9	498,8
-dehqon xo'jaliklarida	1525,5	1615,0	1630,2	1745,0	1792,1	266,6	117,5

⁴³ Манба: Иш ўринлари ҳисобини юритиш ва балансини тузиш Методикаси асосида муаллиф томонидан тузилган.

⁴⁴ Манба: Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган

-boshqa tashkilot va muassasalarda	442,4	225,8	447,8	225,8	447,8	5,4	101,2
------------------------------------	-------	-------	-------	-------	-------	-----	-------

2.1.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band aholi 2013-yilda 2009-yilga nisbatan 1032,4 ming kishiga yoki 15,0 %ga ortgan. Shu bilan birga yirik korxonalarda ish bilan band aholi 66,3 ming kishiga yoki 2,6 % ga kamayganini ko'rish mumkin. Kichik biznes va fermer xo'jaliklarida band aholi 238,8 kishiga yoki 11% ga oshgani ko'rinadi. Yakka tartibda ro'yhatdan o'tgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar 587,9 ming kishiga yoki 4 barobarga ortgan. Shu bilan birga rasmiy sektorda ish bilan bandlar ulushini o'rganish ham maqsadga muvofiqdir.



2.1.1-rasm. 2012 yilda rasmiy sektorda ish bilan bandlar, foizda⁴⁵

Respublika bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan ish bilan bandlar umumiy tarkibida yirik korxona, tashkilot va muassasalarda ishlovchilar ulushi 2012 yilda 31,9% tashkil etdi. Ro'yxatdan o'tkazilgan ish bilan bandlarning asosiy qismi (62,4%) kichik biznes, fermer va dehqon xo'jaliklarida, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan band bo'lganlar tashkil qildi.

⁴⁵ Манба: Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган

Aholi bandligini ta'minlashda norasmiy segmentning roli muhim ahamiyat kasb etishi davom etmoqda. Bu holat ko'proq qishloq joylarida va ishlab chiqarish rivojlanishi etarli bo'lmagan tumanlarda, shu jumladan demografik omillar ta'sirida ishchi kuchi taklifi talabdan ko'proq bo'lgan mehnat bilan bandlikka talab yuqori bo'lgan hududlarda ko'proq namoyon bo'lmoqda.(2.1.4-jadval)


2.1.4-jadval. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lgan aholi tarkibining dinamikasi, ming kishi hisobida⁴⁶

Ko'rsatkichlar	Y i l l a r					2013 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2009	2010	2011	2012	2013	+, -	%
Norasmiy sektorda ish bilan bandlar	3853,5	4018,0	4074,3	3833,3	3994,3	140,8	103,7
<i>shundan:</i>							
-vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda ishlovchilar	1547,6	1348,5	1661,2	1326,9	1553,3	5,7	100,4
-ro'yxatga olinmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar	781,4	1273,9	840,2	1283,9	1151,1	369,7	147,3
-oila a'zolariga yordam berayotgan va mehnat munosabatlarsiz ishlayotganlar	1524,5	1395,6	1572,9	1222,4	1289,9	-234,6	84,6

2.1.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oxirgi besh yil ichida jami norasmiy sektorda ish bilan bandlar 140,8 ming kishiga yoki 3,7 %ga oshgan. 2012 yilda vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda ishlovchilar 2008 yilga nisbatan 5,7 ming kishiga yoki 0,4 %ga oshgan. Bu davrda ro'yxatga olinmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar 369,7 nafarga yoki 47,3 %ga oshganini ko'rish mumkin. Oila a'zolariga yordam berayotgan va mehnat munosabatlarsiz ishlayotganlar soni 2012 yilda 2008 yilga nisbatan 234 ming kishiga yoki 15,4 %

⁴⁶ Манба: Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

ga kamayganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga norasmiy sektorda ish bilan bandlarning eng ko'p qismi bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar hisobiga to'g'ri kelmoqda. (7-rasm)



2.1.3-rasm. 2012 yilda norasmiy sektorda ish bilan bandlar, foizda⁴⁷

O'rganishlar natijalariga ko'ra jami mehnat resurslarining uchdan bir qismi (22,6%) ro'yxatga olinmagan bandlikka to'g'ri keladi. Norasmiy sektordagi bandlarning asosiy qismi vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga (norasmiy bandlar umumiy soniga nisbatan 38,9%), shu jumladan ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga (32,3%) to'g'ri kelgan. 1151,1 mingdan ortiq kishi yoki 28,8% o'z oilasiga yordamlashib yoki ish beruvchilar bilan (tadbirkorlarda) mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan ishlamoqdalar.

Mehnat bozori monitoringi barqaror iqtisodiy o'sish, inqirozga qarshi choralar dasturining hamda boshqa dasturlarni amalga oshirilishi oqibatida bandlikning tarmoq tarkibida ijobiy tendentsiyalar namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, respublika bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarmoqda (2.1.5-jadval).

2.1.5-jadval ma'lumotlarining tahlili ish bilan bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendentsiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1991 yilda mazkur sohada

⁴⁷ Манба: Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 27 foizga tushdi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 50 foizga etdi.

2.1.5-jadval. O'zbekistonda aholi ish bilan bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti (% hisobida)⁴⁸

Iqtisodiyot tarmoqlari	Y i l l a r					2012 yil 2008yilga nisbatan o'zgarishi %
	2008	2009	2010	2011	2012	
Jami ish bilan band bo'lganlar	100	100	100	100	100	-
<i>shundan:</i>						
sanoatda	13,4	13,4	13,3	13,2	13,0	97,0
qishloq va o'rmon xo'jaligida	27,6	26,7	26,6	25,5	27,2	98,5
qurilishda	8,5	8,9	9,0	9,1	9,2	108,2
transport va aloqada	5,0	5,1	5,1	5,2	5,2	104,0
savdo va sotiq, umumiy ovqatlanish, tayyorlashda	10,3	10,5	10,6	10,7	10,4	101,0
turar joy kommunal xo'jaligi va aholiga nomaishiy xizmat ko'rsatish turlarida	3,3	3,4	3,4	3,5	3,5	106,0
sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda	7,6	7,6	7,7	7,7	7,6	100,0
ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda	13,9	13,9	13,9	13,9	13,4	96,4
boshqa sohalarda	10,4	10,5	11,0	11,2	9,9	95,2

Jadvaldan ko'rinib turganidek, iqtisodiyot tarmoqlari ichida sanoat (3 %ga), qishloq va o'rmon xo'jaligi (1,5 %ga), ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish (3,6 %ga) va boshqa sohalarda (4,8 %ga) band bo'lgan aholi ulushi kamaygan, qolgan tarmoqlarda esa ortgan. Shu o'rinda aytish joizki, mamlakatimizda keng bunyodkorlik ishlarining jadal amalga oshirilishi natijasida

⁴⁸ Манба: Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари

qurilish sohasida mehnat qilayotganlar ulushi (8,5 %ga) yuqori sur'atlarda ko'paymoqda.

Ishchi kuchining tarmoqlararo taqsimlanishi, shu tarmoqlarga jalb etilgan ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liq. Shuning uchun iqtisodiyotning turli tarmoqlariga davlat tomonidan ajratiluvchi fond miqdori aholi ish bilan bandligi tarkibida o'ziga xos o'zgarishlarni vujudga keltiradi.

Ish bilan bandlik tarkibini tartibga solishda tarmoq ichidagi va tarmoqlararo aloqalar bir tekis amalga oshirilishi lozim, lekin ular orasida muvozanatga erishish juda murakkab. Chunki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari birdek rivojlana olmaydi.

Respublikadagi iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi miqdori ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishlariga olib keladi (8-jadval).

2.1.6-jadval. O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchi xodimlarni ish haqi miqdorining o'zgarishi (ming so'm)⁴⁹

Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar				
	2007	2008	2009	2010	2013
Sanoat	244,7	380,0	393,8	568,0	1907,1
Qurilish	119,2	158,4	232,6	287,2	1853,3
O'rmon xo'jaligi	463,7	540,2	566,2	588,8	577,9
Transport va aloqa	251,8	333,6	343,6	405,1	1649,1
Boshqa tarmoqlar	168,1	207,9	273,8	338,2	881,1

2.1.6-Jadvaldan ko'rinib turganidek, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchi xodimlarning ish haqi miqdori muntazam ortib borgan. Tahlillar o'tgan besh yil davomida qishloq xo'jaligida ishlovchi ishchilarning o'rtacha ish haqi miqdori yuqori sur'atda (291,4 %ga) o'sganligini ko'rsatadi. Biroq, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish haqi miqdorini taqqoslash, uning qishloq xo'jaligi sohasida eng kam (347,4 ming so'm) ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib qishloq xo'jaligida ish bilan bandlar uchun malaka toifalarini kiritish tavsiya etiladi. Bunday

⁴⁹ Манба: Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

sharoitlarda ishchilarga mehnatning murakkabligi, uning ijodiy ko'rinishini aks ettiruvchi ma'lum malaka toifasi beriladi. Taklif etilayotgan tizim ma'lum ma'noda mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofatli shakli bilan mos keladi. Bunda har bir xodimga muayyan ish turlarini bajarish bo'yicha me'yoriy topshiriqlar belgilanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, respublikadagi past darajali mehnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mehnat natijalari erkinligining yo'qligi past daromad olinishiga sabab bo'ldi, bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga ko'ra, ushbu xo'jaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sun'iy yo'l orqali paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtgacha mavjud bo'lgan ish bilan bandlikning tarmoq tuzilishi jamiyat mehnat potentsialidan foydalanish samaradorligining darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o'zgartirishga muhtojdir.

Ish bilan bandlikdagi tarkibiy tanazzulning bevosita oqibatlari, aqliy mehnat kishilarining boshqa mamlakatlarga ketib qolishi – ilm-fan sohasidan va ilmiy bilimlar ko'proq talab qilinadigan ishlab chiqarish tarmoqlaridan xodimlarning vositachilik sohalariga, shuningdek, malakasini yo'qotib, norasmiy faoliyat sohalariga o'tib ishlashidir. Qayd qilingan ishsizlik darajasidagi tarkibiy orqaga ketish ish bilan bandlik xizmati mijozlari orasida mutaxassislar ulushining yuqori ekanligida namoyon bo'lmoqda. Holbuki, kadrlar potentsialini, ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarni shakllantirish uzoq vaqttni hamda mablag'ni talab qiladi.

3.2. Aholi ish bilan bandligining demografik belgilari bo'yicha o'zgarish tamoyillari

O'zbekistonda iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilib kelinayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar asosida qayta jihozlash, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash,

qulay investitsion muhitni shakllantirish, kichik biznes, xususiy tabirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis sohasini barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Albatta, bunda mamlakatda shakllangan demografik vaziyatning o'zni katta.

Aholining umumiy soniga ko'ra O'zbekiston jahonning 230 mamlakati orasida 43, Osiyoda esa 18-o'rinda turadi. Markaziy Osiyo respublikalari jami aholisining 45 foizi O'zbekiston hududida istiqomat qiladi.

Aytish joizki, mustaqillik yillarida (1991-2010 y.) O'zbekiston aholisining soni 7,4 mln. kishiga, ya'ni o'rtacha yiliga 389,1 ming kishidan ko'paydi. O'tgan qariyb 20 yil mobaynida respublikada aholi soni – 1,35, shahar aholisi – 1,73, qishloq aholisi esa 1,1 martaga ko'paydi. Biroq, mustaqillik yillarini alohida davrlarga bo'lib o'rganish ko'rilayotgan davrning turli oraliqlarida respublika va uning shahar hamda qishloq joylari miqyosida aholi sonining ko'payish sur'ati turlicha bo'lganligini ko'rsatadi (9-jadval).

9-jadval ma'lumotlarining tahlili 2008-2012 yillar davomida jami aholi sonining 2922,4 ming kishiga yoki 10,8 foizga ko'payganligini ko'rsatadi. Biroq ko'rilayotgan davrda respublikaning shahar va qishloq joylarida aholi sonining o'sish sur'atlarini bir me'yorda kechmagan.

9-jadval. O'zbekistonda aholi sonining o'zgarish dinamikasi (ming kishi)⁵⁰

Ko'rsatkichlar	Yillar					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2008	2009	2010	2011	2012	+, -	%
Jami aholi soni	27072,2	28001,4	29123,4	29555,4	29994,6	2922,4	110,8
Shundan:							
Shahar aholisi	9758,3	14327,8	14618,4	14897,4	15117,3	5359,0	154,9
Qishloq aholisi	17775,0	13673,6	13835,3	14225,9	14877,3	-2897,7	83,7

Jumladan, 2012 yilda 2008 yilga nisbatan shahar aholisi soni 54,9 foizga ko'paygan bo'lsa, qishloq aholisi esa 16,3 foizga kamaygan. Shu bilan birga, bu

⁵⁰ Манба: Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

davrda jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 35,4 foizdan 50,4 foizga ortgan, qishloq aholisiniki esa 64,6 foizdan 49,6 foizgacha kamaygan. Buning sababi esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi 68-sonli qaroriga ko'ra respublikadagi 966 ta qishloq punktiga shaharcha maqomi berilganligi bilan izohlanadi.

Respublikada aholi sonidagi o'zgarishlar uning bevosita yosh tarkibi bilan bog'liq. O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1%ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi – 33,3%ni, 16-29 yoshdagilar ulushi – 28,8%ni tashkil etadi.⁴⁵ Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar tahlili so'nggi yillarda 0-15 yoshdagi aholi mutlaq sonining kamayayotganligini ko'rsatmoqda.

⁴⁵ Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: Ижтимоий фикр, 2009. – С.154-155.

10-jadval. O'zbekiston hududlarida yosh guruhleri bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi sonining o'zgarishi (%)

	2008 yil								2012 yil							
	Ja-mi	Shu jumladan yosh guruhlarida:							Ja-mi	Shu jumladan yosh guruhlarida:						
		16 ga-cha	16-24	25-29	30-39	40-49	50-54	55+		16 ga-cha	16-24	25-29	30-39	40-49	50-54	55+
O'zbekiston	100	0,1	14,6	21,0	28,7	24,6	7,7	3,3	100	-	12,6	19,2	28,4	25,7	9,9	4,1
Qoraqalpog'iston	100	0,1	14,7	22,4	30,3	23,1	7,0	2,4	100	-	11,3	20,8	30,8	25,9	8,3	2,9
Viloyatlar:																
Andijon	100	0,2	13,2	21,8	32,1	23,9	6,9	1,9	100	-	14,2	22,0	28,9	23,3	8,6	3,1
Buxoro	100	0,1	15,2	21,7	28,3	24,7	7,8	2,2	100	-	11,7	19,7	29,0	26,1	10,2	3,4
Jizzax	100	-	13,1	25,1	33,2	20,5	6,5	1,6	100	-	10,9	21,1	30,3	25,6	9,0	3,0
Qashqadaryo	100	-	14,1	21,4	28,7	28,0	5,7	2,1	100	-	10,4	17,6	30,1	27,9	11,0	3,0
Navoiy	100	-	15,1	19,2	30,0	24,4	7,2	4,1	100	-	13,5	18,4	29,3	25,6	8,4	4,8
Namangan	100	-	14,5	21,8	31,1	24,5	5,3	2,8	100	-	12,0	19,2	30,8	27,1	7,8	3,1
Samarqand	100	0,1	14,6	22,9	25,8	24,3	9,4	2,9	100	-	13,7	21,8	27,4	24,2	11,8	1,1
Surxondaryo	100	0,2	18,3	23,3	25,7	23,4	7,0	2,1	100	0,1	9,2	17,5	29,0	28,0	13,0	3,3
Sirdaryo	100	-	14,9	21,5	29,7	24,3	7,0	2,6	100	-	13,5	20,3	28,9	24,8	8,9	3,6
Toshkent	100	-	14,9	18,5	27,2	25,8	8,9	4,7	100	-	14,4	18,6	27,9	25,0	9,3	4,8
Farg'ona	100	-	16,3	22,3	29,2	22,5	6,7	3,0	100	-	13,1	19,5	27,7	26,3	10,1	3,2
Xorazm	100	-	13,9	21,9	30,2	23,1	8,4	2,5	100	-	10,4	19,8	29,5	26,7	9,7	3,9
Toshkent sh.	100	-	12,8	15,5	26,5	27,2	10,5	7,5	100	-	13,3	17,0	25,4	25,2	10,6	8,5

Manba: O'zbekiston Respblikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda ish bilan bandlikning yosh tarkibida 25-29, 30-39 va 40-49 yosh guruhida bandlik darajasi yuqori bo'lgan va davrlar bo'yicha o'zgarib borgan.

10-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2008 yilda respublikada 16-24 yosh guruhidagi aholining bandlik darajasi 14,6 %, 25-29 yosh guruhida – 21 %, 30-39 yosh guruhida – 28,7 %, 40-49 yosh guruhida – 24,6 %, 50-54 yosh guruhida – 7,7 %, 55 va undan yuqori yoshdagilarda 3,3 %ga teng bo'lgan. 2012 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 12,6 %; 19,2 %; 28,4 %; 25,7 %; 9,9 % va 4,1 %larni tashkil etgan. Ya'ni, respublikada aholi ish bilan bandligining yosh tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan besh yil davomida 16-24 yosh guruhida aholi ish bilan bandligining 2,0 punktga, 25-29 yoshdagilar 0,8 punktga, 30-39 yoshdagilar 0,3 punktga kamaygan. 40-49 yosh guruhida esa – 1,1 punktga, 50-54 yoshdagilar 2,2 punktga, 55 va undan yuqori yoshdagilarda – 0,8 punktga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, Respublikada yosh guruhlari bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi sonining o'zgarishi uning viloyatlarida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Ya'ni, statistik ma'lumotlar tahlili respublikaning Andijon viloyati va Toshkent shahridan boshqa barcha viloyatlarida 16-24 yosh guruhidagi aholida ish bilan bandlikning kamayganligini, 25-29 yoshdagilarda respublikada 1,8 punktga kamaygani holda, Andijon, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida ko'payganligini, 30-39 yosh guruhida 0,3 punktga kamaygani xolda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida aholi bandligining ortganligini, 40-49 yoshdagilarda Respublikaning o'rtacha ko'rsatkichi ortgani xolda, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida kamayganligini, 50-54 yosh guruhida barcha viloyatlarda ish bilan bandlar soni ko'paygani, shuningdek, 55 va undan yuqori yoshdagilarda viloyatda 0,8 punktga oshgani holda, faqatgina Samarqand viloyatida bu yoshdagilarda ish bilan bandlik ko'rsatkichining pasayganligini ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda Respublikada iqtisodiyotda band bo'lgan aholining jins tarkibida ham o'zgarishlar sodir bo'lmoqda (11-jadval).

11-jadval. 2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasida jinslar bo'yicha iqtisodiyotda band bo'lgan aholi sonining o'zgarishi, foizda⁵¹

Tarmoqlar	2008 yil		2012 yil		2012 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarishi (+, -)	
	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	-	-
Shu jumladan:						
Sanoat	12,4	13,0	12,6	13,2	0,2	0,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	30,8	32,8	29,7	31,5	-1,1	-1,3
Qurilish	2,6	12,2	2,6	12,5	-	0,3
Transport va aloqa	1,9	6,6	1,9	6,8	-	0,2
Savdo, umumiy ovqatlanish va tayyorlov	8,4	8,6	8,5	8,7	0,1	0,1
Uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	2,4	3,4	2,5	3,5	0,1	0,1
Sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot	11,7	3,0	11,9	3,1	0,2	0,1
Ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat	21,8	6,3	22,1	3,1	0,2	0,1
Moliya, kredit va sug'urta	0,6	0,5	0,6	0,5	-	-
Boshqa tarmoqlar	7,4	13,6	7,6	13,8	0,2	0,2

Jadvalda keltirilgan statistik raqamlar tahlili 2008-2012 yillar davomida respublika iqtisodiyotining sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot, moliya, kredit, ta'lim, madaniyat, fan va ilmiy xizmat sohalarida ayollarning ulushi yuqori, sanoat, qishloq va o'rmon xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish va tayyorlov, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida esa erkaklarning ulushi yuqori ekanligini va bir me'yorda bo'lmaganini ko'rsatadi.

Jumladan, ko'rilayotgan davrda ayollarning ulushi sanoat, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmatda – 0,2, savdo, umumiy ovqatlanish, tayyorlov, uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga

⁵¹ Манба: Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

maishiy xizmat ko'rsatishda – 0,1 punktga o'sgani holda, qishloq va o'rmon xo'jaligida 1,1 punktga kamaygan hamda qurilish, transport va aloqada o'zgarishsiz qolgan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda erkaklarning ulushi savdo, umumiy ovqatlanish, tayyorlov, uy-joy kommunal xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmatda 0,1 punktga o'sgani holda, sanoat, transport va aloqada – 0,2, qurilishda – 0,3 punktga ko'paygan, qishloq va o'rmon xo'jaligida esa aksincha 1,3 punktga kamaygan.

Tahlillar natijasidan ko'rib turganimizdek, keyingi besh yil ichida aholining ish bilan bandligi tarkibida demografik jihatdan ham o'zgarishlar yuz bergan. Keyingi yillarda 16-40 yoshlar oralig'ida ish bilan bandlik tarkibi kamayib bormoqda, bunga sabab respublikada tug'ilish darajasining nisbatan pasayganligi bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga ayollarning sanoat, hizmat ko'rsatish sohalari, ta'lim, madaniyat, fan sohalarida, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faollik darajasining ortganligini ko'rish mumkin. Erkaklarning ish bilan bandligi esa qurilish, transport, aloqa tarmoqlarida tarkibiy jihatdan o'zgarishlarga yuz tutgan.

3.3. Ish bilan bandlarning kasb-malaka tarkibini tahlili


Bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi holati malakali kadrlarini tayyorlashga, ishbilarmonlik ta'limi tizimini tashkil etishga nisbatan printsiptial jihatdan yangi talablarni ilgari surmoqda. Innovatsion va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik yuritishning zamonaviy usularidan foydalanishga qodir bo'lgan kadrlarining sifat xususiyatlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, inson kapitalining milliy boylikni shakllantirishga qo'shayotgan hissasi barqaror oshib borish tendentsiyasiga ega bo'lib, 75 foiz (rivojlangan mamlakatlar uchun) chegarasida o'zgarib turadi, bunda jismoniy

kapitalning ulushi taxminan 20 foizni va resurs qismining ulushi 2-5 foizni tashkil qiladi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ish bilan band aholining 74 foizdan ko’prog’i kichik biznes sohasida mehnat qilayotgan O’zbekiston sharoitida ushbu masalalar o’ta muhim ahamiyatga ega. Xususan, oliy menejment va ishchi kadrlarning malakasini oshirish dolzarb muammo bo’lib qolmoqda. O’tkazilgan qator sotsiologik so’rovlar natijalariga ko’ra, ish bilan bandlarning 50 foizidan ko’prog’i o’z faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega emas va ular ushbu bilimlarni turli darajadagi qo’shimcha ta’lim dasturlarini o’zlashtirish jarayonida egallash zarur, deb hisoblaydi.

Iqtisodiy islohotlar davrida O’zbekistonda xo’jalik yurituvchi sub’ektlar sonining doimiy o’sishi, xamda korxonalarning ma’lum qismining faoliyatini to’xtatilishi kuzatilmoqda. Ushbu holat respublikaning deyarli barcha mintaqalari uchun xosdir. Bizning fikrimizcha, bu dinamika faqatgina xo’jalik yuritish sharoitlari, raqobatning rivojlanishi bilangina emas, balki ish bilan band bo’lganlarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan ham bog’lik.

Shuning uchun iqtisodiyotning turli sohalarida ish bilan band bo’lganlarning muhim jihati bo’lib ularning ma’lumot darajasi hisoblanadi. (8-rasm)



8–rasm. 1998-2012 yillarda O’zbekiston korxona va tashkilotlarida ishlovchilarning ta’lim darajalarini o’zgarishi⁵²

⁵² Манба: Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Keltirilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, 1998 yilda ish bilan bandlarning 64,0 % o'rta ma'lumotga, 20 % o'rta maxsus ma'lumotga, faqatgina 16 % oliy ma'lumotga ega bo'lgan. 2012 yilga kelib esa ish bilan bandlarning malakaviy tarkibida sezilarli ravishda o'zgarish yuz bergan. Jumladan oliy ma'lumotlilar jami ish bilan bandlarning 34% ini, o'rta maxsus ma'lumotlilar 38 %ni, o'rta ma'lumotlilar esa 28 %ni tashkil qildi. Bunday o'zgarishlarning asosiy sababi O'zbekistonda ikkita muhim ijtimoiy dastur – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga etkazildi. Natijada Respublikada 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi.

Shunday qilib, Respublikada ish bilan bandlikning ma'lumot darajalari bo'yicha tarkibi bozor munosabatlariga mos ravishda o'zgarib, professional xodimlarga talab miqdori ortib borgan. (12-jadval)


12-jadval. 2008-2012 yillarda O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan aholining ma'lumot darajasi bo'yicha o'zgarishi (%)

Hududlar	2008 yil				2012 yil			
	Jami	Shu jumladan:			Jami	Shu jumladan:		
		Oliy	O'rta maxsus	O'rta va to'liqsiz o'rta		Oliy	O'rta maxsus	O'rta va to'liqsiz o'rta
O'zbekiston	100	16,0	20,0	64,0	100	34,0	38,0	28,0
Qoraqalpog'iston	100	19,5	29,4	51,1	100	30,6	41,4	28,0
Viloyatlar:								
Andijon	100	15,3	20,8	63,9	100	26,8	37,9	35,3
Buxoro	100	17,3	21,1	61,6	100	27,5	37,8	34,6
Jizzax	100	26,9	38,7	34,4	100	37,2	38,6	24,2
Qashqadaryo	100	18,3	21,5	60,2	100	30,1	39,3	30,6
Navoiy	100	17,3	20,7	62,0	100	24,5	26,7	48,8
Namangan	100	16,9	21,9	61,2	100	27,6	37,4	35,0
Samarqand	100	17,3	20,2	62,5	100	41,6	36,1	22,2
Surxondaryo	100	16,7	22,5	60,8	100	29,5	40,9	29,6
Sirdaryo	100	18,6	27,1	54,3	100	27,4	39,8	32,8
Toshkent	100	16,6	23,6	59,8	100	21,8	37,2	41,0
Farg'ona	100	16,4	22,9	60,7	100	24,5	38,1	37,4
Xorazm	100	16,2	16,7	67,1	100	33,4	34,7	31,8
Toshkent sh.	100	30,9	23,2	45,9	100	36,6	30,2	33,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jumladan, ko'rilayotgan davrda oliy ma'lumotga ega bo'lgan iqtisodiyotda band aholi soni eng yuqori bo'lgan hududlarga Jizzax (37,2 %), Samarqand (41,6 %) viloyatlari va Toshkent shahrini (36,6 %) kiritish mumkin. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda respublikaning barcha viloyatlarida o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan band aholi sonining o'sishi, o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotlilarning esa kamayishi kuzatilgan.

2012 yil kuz oylarida biz tomonimizdan kichik biznesda faoliyat yuritayotganlar orasida sotsiologik so'rov o'tkazildi. Anketa savollari ilgari o'tqazilgan sotsiologik so'rovlarni hisobga olgan holda, qo'shimcha ta'limga bo'lgan hozirgi kundagi ehtiyojlarni aniqlash maqsadida muallif tomonidan tuzilgan. Tadqiqot jarayonida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mustaqil o'quv markazlari qamrab olindi. Tadqiqot Toshkent shahrida va Qashqadaryo, Farg'ona viloyatlarida o'tkazildi, bunda 200 respondent so'rovda ishtirok etdi. So'ralganlarning ma'lumot darajasi ancha yuqori: 68,0 foizi oliy, 13,0 foizi – tugallanmagan oliy, 18,0 foizi – o'rta maxsus ma'lumotga, qolgan 1,0 foizi esa o'rta ma'lumotga ega. (9-rasm)




9-rasm. Sizing asosiy mutaxassisligingiz?⁵³

So'ralganlarning aksariyat qismi kasbiy malakaga ega bo'lishiga qaramasdan o'z malakasini oshirishga tayyor. O'tkazilgan sotsiologik so'rov

⁵³ Манба: Муаллиф томонидан ўтказилган сўров натижалари асосида тузилган.

natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlarning 46,0 foizi, shuningdek mutaxassislarning 57,0 foizining fikricha, qo'shimcha ta'lim ularga joriy ish uchun zarur bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Respondentlarning 75 foizidan ko'pi xo'jalik yuritish natijalarining ma'lumot darajasiga bevosita bog'liqligini tan olishmoqda, shuning uchun o'z malakalarini oshirishga ma'lum miqdorda mablag' sarflashga tayyorlar. (10-rasm)



10-rasm. Firmalar xodimlarining qo'shimcha ta'lim uchun mablag'lar sarflash imkoniyatlari⁵⁴

Ko'rib turganimizdek, so'ralganlarning 34,0 foizi qo'shimcha o'qish uchun 500 ming so'mgacha, 9 foizi 800 ming so'mgacha, 15,0 foizi 1 mln. so'mgacha, 22,0 foizi 2 mln. so'mgacha, 20,0 foizi esa kerakli miqdorda mablag' sarflay oladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirishdagi zamonaviy tendentsiyalar deb hisoblaymiz:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sonining o'sishi;
- tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish bilan bandlar sonining o'zgarishi;
- teng darajadagi umumta'lim va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan ish bilan bandlarning mavjudligi;

⁵⁴ Манба: Муаллиф томонидан ўтказилган сўров натижалари асосида тузилган.

- ish bilan band bo'lganlar tomonidan qo'shimcha ta'lim zarurligining tan olinishi;

- iqtisodiyotda olib borilayotgan tub islohotlarga nisbatan munosabatning o'zgarishi.

Ish bilan band bo'lganlarning qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lishga intilishi shu bilan izohlanadiki, hozirgi sharoitda ish bilan bandlikning mazmuni katta o'zgarishlarga duch kelmoqda, shuning uchun ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash jarayonida maxsus kasb-hunar ta'limi hamda iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tayyorgarlik respublika fuqarolari ularda zamonaviy jamiyatda zarur bo'lgan bilimlar va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi mumkin bo'lgan O'zbekiston ta'lim tizimi muassasalarida ham (o'rta maktabdan tortib to oliy o'quv yurtigacha), ish bilan bandlarni kasbga tayyorlash maqsadini ko'zlovchi ixtisoslashgan o'quv muassasalarida ham amalga oshiriladi.

II - bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda ko'rib chiqilgan savollarga yakun yasab, quyidagicha umumlashtiruvchi xulosalar qilish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, respublikadagi past darajali mehnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mehnat natijalari erkinligining yo'qligi past daromad olinishiga sabab bo'ldi, bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Hozirgi vaqtgacha mavjud bo'lgan ish bilan bandlikning tarmoq tuzilishi jamiyat mehnat potentsialidan foydalanish

samaradorligining darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o'zgartirishga muhtojdir.

Ikkinchidan, aytish joizki, mustaqillik yillarida (1991-2010 y.) O'zbekiston aholisining soni 7,4 mln. kishiga, ya'ni o'rtacha yiliga 389,1 ming kishidan ko'paydi. O'tgan qariyb 20 yil mobaynida respublikada aholi soni – 1,35, shahar aholisi – 1,73, qishloq aholisi esa 1,1 martaga ko'paydi. Bunday demografik o'zgarishlar ish bilan bandlar tarkibidagi yosh-jins o'zgarishlariga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, bozor munosabatlarining rivojlanishi jarayonida ta'lim sohasida ta'lim faoliyatini boshqarish mexanizmlarida o'zgarishlar, ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning kuchayishi, ular faoliyatining avtonomlik tamoyilining rivojlanib borishi yuz berib, bularning hammasi mutaxassislar tayyorlash sohalarida ham namoyon bo'lmoqda.

III bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholining ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilashni takomillashtirish yo'llari

3.1. Mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash tizimini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning istiqboliy tamoyillarini hisobga olib takomillashtirish

Mustaqillikning dastlabki yillarida ro'y bergan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi butun ta'lim, malaka oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini qayta anglab etishni va o'zgartirishni talab qildi. 1997 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlar respublika ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim majmuining barcha bo'g'inlarida – boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limda o'zgarishlarni boshlashga asos bo'ldi. Unda ta'limning uzluksizligini ta'minlash turli darajadagi barcha ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligi tizimining faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshirilishi lozimligi ko'zda tutildi. Bundan tashqari, bozor islohotlarini chuqurlashtirish jarayonida ta'limning permanentligi muammosi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki hozirgi vaqtda bilimlar eskirishining o'rtacha yillik normasi 5 foiz atrofida tashkil etmoqda.

O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirishning yangi kontseptsiyasi hisoblangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi inson salohiyatining sifatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Unda ta'lim islohotlarining quyidagi qator asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan:

- jinsiy va etnik belgilari, dinga e'tiqodi bo'yicha kamsitishlarga yo'l qo'yilmagan holda o'qitish va ta'limning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'lim tizimida ta'limning sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kamchiliklarga barham berish;
- tizimga egiluvchan, dinamik, moslashuvchan xarakterni berish, respublikaning iqtisodiy rivojlanishi hamda shaxsning ma'naviy takomillashishining joriy va istiqboldagi ehtiyojlariga mos ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- normativ-qonunchilik bazasini takomillashtirish va qulay moliyaviy sharoitlarni yaratish yo'li bilan ta'limning barcha bo'g'inlarining uzluksizligi va izchilligini hamda ta'lim sifati va samaradorligini, o'quvchilarning bilim darajasini jahon andozalariga muvofiq barqaror oshirishni ta'minlovchi ta'lim tizimini, uning alohida bo'g'inlarini rekonstruktsiya qilish;

- tarbiya, o'qitish va kasbiy tayyorgarlik sifatini takomillashtirish uchun tashkiliy shart-sharoitlarni shakllantirgan holda turli ta'lim muassasalarida ta'lim darajasini oshirish;
- ta'lim xizmatlari va malakali kadrlarga nisbatan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklarga barham berish;
- ta'limning talab etiladigan darajasi va sifatini, faoliyat ko'rsatish va barqaror rivojlanish kafolatlarini, tayyorlash tizimining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- davlat va nodavlat ta'lim muassasalari asosida yagona o'quv ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida ta'lim tizimining jadal rivojlanishini ta'minlash;
- uzluksiz ta'lim tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini yaratish;
- pedagogika faoliyatining nufuzini va ijtimoiy maqomini oshirish yo'li bilan ta'lim tizimining kadrlar tayyorlash muassasalarini yuqori malakali pedagoglar va mutaxassislar bilan ta'minlash⁴⁶.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi jarayonida iqtisodiyotning aholining muayyan kasbni (mutaxassislikni) egallashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlariga ta'siri o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini egallashga bo'lgan talablarning sezilarli darajada ortishini shart qilib qo'yadi. Bunda, yuqorida aytilganidek, iqtisodiyot sohalari uchun mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ham o'sadi. Bu ehtiyojni o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv muassasalari qondiradi. Bu hol ushbu xildagi o'quv muassasalari sonining o'zgarishida va ularda o'quvchilar sonining oshishida o'z aksini topadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tadbirkorlik sohasi uchun kadrlar tayyorlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini o'quv-ishlab chiqarish majmualari roliga ishtirok etuvchi

⁴⁶ Абдурахманов К.Х. и др. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. Т. - 2005. – 39-40-б.

yangi xildagi ta'lim muassasalari (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari) tashkil etildi.

Shu bilan birga o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalarini bitiruvchilar tarkibi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va boshqa omillar ta'siriga qarab yillar bo'yicha tabaqalanadi. Masalan, respublika aholisi ko'proq tibbiyot va pedagogika o'quv muassasalarida o'qishni afzal ko'rishadi, sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiyotni rivojlantirishning asosi hisoblansada, sanoat ulushiga 17 foiz to'g'ri keladi. Natijada, ayrim sanoat ishlab chiqarishlarida ushbu darajadagi ma'lumotga ega kadrlar taqchilligi mavjud.

O'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kelishi va umuman jamiyatning ham, alohida shaxsning ham ehtiyojlarini qondirishi hamda kasb malakaga oid bilimlarni egallagan kadrlarni tayyorlashi lozim. Biroq turli tarmoqlar uchun mutaxassislarni tayyorlash o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalari tizimi tomonidan ish bilan bandlarning miqdori va sifatiga bo'lgan ehtiyojlarini etarlicha hisobga olmagan holda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarning ish bilan bandligini ta'minlash borasida mehnat bozori hamda kasb-hunar kollejlarning o'zaro aloqalari mustahkamlanmoqda. Buning natijasida bandligi ta'minlangan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari soni yil sayin ortib bormoqda

3.1.1-jadval. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ishga joylashganlik holati (2014 yil)⁵⁵

Hududlar nomi	Jami bitiruvchilar soni	Ish bilan ta'minlanganlar		O'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashganlar	
		soni	soni	%	%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	27897	25302	90,7	10103	39,9
<i>Viloyatlar:</i>					

⁵⁵ Манба: Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Andijon	47025	42338	90,0	21293	50,3
Buxoro	26605	22937	86,2	17805	77,6
Jizzax	18877	17208	91,2	5794	33,7
Qashqadaryo	42139	37347	88,6	15308	41,0
Navoiy	17947	15687	87,4	6924	44,1
Namangan	41880	37903	90,5	18682	49,3
Samarqand	60856	53292	87,6	26867	50,4
Surxondaryo	41561	36693	88,3	9522	26,0
Sirdaryo	12221	11358	92,9	4210	37,1
Toshkent	37079	34189	92,2	13340	39,0
Farg'ona	58155	52208	89,8	25610	49,1
Xorazm	30356	27221	89,7	11779	43,3
Toshkent sh.	38879	31897	82,0	16983	53,2
Jami	501477	445580	88,9	204220	45,8

3.1.1-jadvaldan ko'rinadiki, Respublikaning bir qancha hududlarida, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi (90,7 %), Andijon (90,0 %), Jizzax (91,2 %), Namangan (90,5%), Sirdaryo (92,9 %), Toshkent (92,2 %), Farg'ona (89,8 %) va Xorazm (89,7 %) viloyatlarida kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi ijobiy tendentsiyaga ega bo'lib, respublika o'rtacha darajasidan yuqori.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yilda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining 45,8 foizi o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashgan. Bu ko'rsatkich Buxoro (77,6%), Samarqand (50,4%), Namangan (49,3%), Farg'ona viloyatlari (49,1%) va Toshkent shahrida (53,2%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori. Biroq Qoraqalpog'iston (39,9 %), Jizzax (33,7 %). Surxondaryo (26 %) viloyatlarida bu ko'rsatkich o'rtachadan ancha past. Ushbu tahlillardan ko'rinib turganidek malakali kadrlar tayyorlashda respublikada hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar mavjud.

Shu bilan birga mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish dasturlari ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish ehtiyojlarini to'liq hisobga olishi lozim. Keyinchalik ham mutaxassislar tayyorlash tajribasini ishlab chiqarish va tadbirkorlik tuzilmalarining buyurtmalari asosida ularning mutaxassislarini o'quv jarayoniga keng jalb qilgan xolda kasbiy ta'limning yangi yo'nalishlari bo'yicha rivojlantirish kerak.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada jadal rivojlanishini va kasbiy ta'limga muhtoj bo'lganlar sonining ortishini hisobga olish lozim. Demak, bunda quyidagilarga tayanish zarur:

1. Xo'jalik sub'ektlarining tashkil etilishini prognoz qilish;
2. Kasbiy ta'limni beruvchi o'quv muassasalarining sonini prognoz qilish;
3. Iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarni tayyorlash hajmini prognoz qilish;
4. Moliyaviy ta'minotni prognoz qilish.

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashning o'ziga xos muammolari oliy ta'lim tizimida ham mavjud. Hozirgi sharoitda ushbu darajadagi kadrlarni tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etdi, zero aholining kasbiy darajasi – bu bir vaqtning o'zida zamonaviy bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti talablarining ham sharti, ham oqibatidir.

Oliy ta'lim tizimidagi yakunlovchi bo'g'in hisoblanadi. U iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish texnik darajasining oshishi, xususiy sektorning o'sishi va iqtisodiyotning qayta tarkiblanishi kasbiy tayyorgarlik darajasiga borgan sayin yuqori talablarni qo'ymoqda, chunki ular – mamlakat iqtisodiyotini oliy malakali mutaxassislar bilan to'ldirishning yagona manbasi hisoblanadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimining rivojlanishi oliy o'quv yurtlari talabalarining soni keskin qisqarib ketgan islohotlarning dastlabki yillari qiyinchiliklarini engib o'tdi va 1997 yidan boshlab hozirgi vaqtgacha barqaror ijobiy dinamikaga ega bo'ldi.

Shuningdek, talabalarining tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u 2008-2014 o'quv yilida quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi. Talabalarining asosiy qismi – 54,5 foizi maorif sohasidagi oliy o'quv yurtlarida, 13,6 foizi sanoat va qurilish mutaxassisliklari bo'yicha, 6 foizi qishloq xo'jaligi mutaxassisliklari bo'yicha va 9,5 foizga yaqini iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olishdi.⁴⁷ Respublikada hali malakali iqtisodchi kadrlarga bo'lgan talab to'liq qondirilgan emas. Oliy o'quv yurtlarining tarmoq

⁴⁷ Образование в Республике Узбекистан. 2011. Статистический сборник. Т. – 2012. – 161-б.

xususiyati bo'yicha talabalarning taqsimlanishi to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar bo'lajak kadrlar uchun ularning kelgusi faoliyatining tegishli tarmoqlarida zarur bo'ladigan bilimlarni olish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatish nuqtai nazaridan muhim.

Respublikada oliy ta'lim sohasida shaxs manfaatlari va jamiyatning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan ko'p pog'onali ta'lim tizimi shakllangan. Oliy o'quv yurtlarida ko'p pog'onali kadrlar tayyorlash tizimi o'rta ma'lumot to'g'risidagi shahodatnomani olishdan boshlab to fan doktori ilmiy darajasini olgunga qadar ijodiy o'sishni nazarda tutadi. Bozor islohotlari bilan bir qatorda, oliy ta'lim tizimida an'anaviy tizim doirasida yangi ta'lim tizimining vujudga kelishi yuz berdi.

Ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiya qilish sharoitida ish bilan band bo'lganlar uchun ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari quydagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bilimlarni berishning ilg'or chet el tajribasidan foydalanishni rag'batlantirish asosida ta'lim sektorida kiritilgan yangiliklarni qo'llab-quvvatlash, bu davlat tuzilmalari bilan hamkorlik qilayotgan chet el ta'lim markazlarining grant resurslari bilan ham qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

2. Davlat ta'lim muassasalari tomonidan ma'qullangan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitishni amalga oshiruvchi va kadrlarni o'qitish, qayta o'qitish va malakasini oshirish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlovchi nodavlat o'quv muassasalariga tanlov asosida davlat grantlarini ajratish.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlarni mustaqil o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish. Bu erda o'qitishni kompyuterlashtirish, hududlarda va mintaqa aholi punktlarida yuqori malakali mutaxassislariga maslahat berish tarmog'ini rivojlantirish, qishloq yoshlarining bilimlar olishning zamonaviy metodikalaridan, shu jumladan audio va video resurslaridan foydalanish mexanizmlarini shakllantirish moliyalashning ustuvor yo'nalishi bo'lishi mumkin

4. Akademik va ta'lim muassasalariga yuqori sifatli uslubiy materiallardan foydalanishga, o'qitishning yangi usullari va amaliyotlarini joriy etishga ko'maklashish.

Bizning fikrimizcha, asosiy tashkiliy chora-tadbirlar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

- ta'lim xizmatlarini amaliyotga imkon qadar yaqinlashtirish. Ushbu maqsadda tarmoq tuzilmalari uchun majburiy kvotalar belgilangan holda oliy o'quv yurtlari va kollejlarda talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti tizimini rivojlantirish taklif etiladi.

- yirik ishlab chiqarish tuzilmalari qoshida kasb-hunar o'rta ta'lim uchun o'quv markazlari tashkil etilishini rag'batlantirish.

Ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tartibga solishning muhim muammolaridan yana biri ta'lim xizmatlari iste'molchilarini aniqlashdir. Bu erda ham olimlar orasida yagona fikr yo'q. Haqiqatdan ham ta'lim xizmatlari iste'molchilari kimlar: yakka tartibdagi iste'molchilarmi yoki korxona va tashkilotlarmi? Bir tomondan, barcha bu sub'ektlar ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi OO'Yuning mavjudligidan manfaatdor.

Bu jihatdan O'zbekistonda, xususan Savdo-sanoat palatasi tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarining ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini bashoratlashga harakat qilingan. (3.1.2- jadval)

Keltirilayotgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek mutaxassislariga bo'lgan eng katta talab qishloq xo'jaligida sezilyapti. Bu biz yuqorida keltirgan qishloq xo'jaligi korxonalari eng ko'p qismini tashkil qilgan kichik biznes tuzilmasini aks ettiradi. Son jihatidan olganda qishloq xo'jaligi tarmog'idagi kichik biznes korxonalarining oliy ma'lumotli mutaxassislariga (bakalavrlarga) bo'lgan qo'shimcha ehtiyoji 4671 kishini yoki jami ehtiyojning 82,7% ni tashkil qiladi.

Shu bilan birga sanoat, chakana savdo va umumiy ovqatlanish, qurilish, ulgurji savdo sohalariga ham ehtiyoj yuqoriligini ko'rish mumkin. Iqtisodiyot tarmoqlaridan ko'chmas mulk operatsiyalarini bajaruvchilar, axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi mutaxassislariga bo'lgan talab ham aniqlangan.

3.1.2- jadval. 2016 yilgacha iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarining bakalavr mutaxassislarga qo'shimcha talabi⁵⁶

Tarmoqlar	Yillar				
	2012	2013	2014	2015	2016
Qishloq xo'jaligi	5408	5678	5962	6260	6291
Chakana savdo va umum.ovqatlanish	227	239	250	263	265
Sanoat	121	127	134	140	146
Qurilish	117	123	129	136	143
Ulgurji savdo	119	125	131	137	144
Sog'liqni saqlash	68	71	75	78	82
Transport va aloqa	70	74	77	81	85
Umum. tijorat faoliyati	32	34	35	37	39
Noishlab chiqarish sohalari	28	29	31	33	37
Uy joy-kommunal xo'jaligi	20	21	23	24	26
Kuchmas mulk operatsiyalari	22	23	24	25	27
Ta'lim	18	19	20	21	23
Madaniyat	41	43	45	47	50
Axborot xizmatlari	20	21	23	24	26
Moddiy ishlab chiqarishning boshqa sohalari	36	38	39	41	43
Fan	18	19	20	21	23
Moliya	18	19	20	21	22
Moddiy texnik ta'minot	18	19	20	21	24
O'rmon xo'jaligi	54	56	59	62	65
Geologiya va qazilmalar qidiruvi	45	47	49	52	55
Boshqaruv	18	19	20	21	22
Uzbekiston Respublikasi - jami	6535	6861	7204	7565	7943

Shu bilan birga Savdo sanoat palatasi tomonidan mehnat bozori uchun eng ko'p talab qilinadigan mutaxassisliklar ham aniqlangan.

3.1.3- jadval. Iqtisodiyot tarmoqlarining alohida kasblar bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talabi

⁵⁶ Манба: Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат Палатаси (ЎзССП)нинг маълумотлари асосида тузилган.

Iqtisodiyot tarmoqlari	Mutaxassisliklarning asosiy yo'nalishlari
1. Qishloq xo'jaligi	• chorvachilik bo'yicha mutaxassislar; • o'simlikchilik bo'yicha mutaxassislar; • agronomlar; • fermer xo'jaliklarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar; • ipakchilik bo'yicha mutaxassislar; • qishloq xo'jalik texnikasini ishga tushirish, sozlash va ta'mirlash bo'yicha mutaxassislar.
2. Transport va aloqa	• axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar; • kompyuter va telekommunikatsion texnikalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar; • avtomobil, temir yo'l va aviatsiya transportiga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar; • logistika bo'yicha mutaxassislar.
3. Sog'liqni saqlash	• turli mutaxassislikdagi vrachlar; • tibbiyot xamshiralari va feldsherlar; • tibbiyot kompaniyalarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar; • tibbiyot uskunalarini tamirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar; • tibbiyot texnikasi va medikamentlari bozorini o'rganish bo'yicha mutaxassislar (marketing).
4. Umumiy tijorat faoliyati	• kompaniyalarni boshqarish bo'yicha mutaxassislar; • bozorlarni o'rganish va sotishlarni boshqarish bo'yicha mutaxassislar (marketing); • ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar (muhandislar); • personalni boshqarish bo'yicha mutaxassislar.
5. Ulgurji savdo	• boshqarish bo'yicha mutaxassislar (menedjerlar); • brokerlar va maklerlar; • marketing bo'yicha mutaxassislar.
b. Qurilish	• menedjerlar; • injenerlar; • qurilish texnikalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar; • qurilish uskunolari va qurilish materiallari bozorini o'rganish bo'yicha mutaxassislar (marketing)

Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bizning fikrimizcha OO'Yulari qayd qilingan mutaxassisliklar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashni rejalashtirishda quyidagilarni hisobga olishlari zarur:

- Iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida ayrim kasb va mutaxassisliklar barham topishi mumkin;

- Fan-texnika taraqqiyoti natijalarini (ayniqsa NANO texnologiyalarni) iqtisodiyotga joriy qilinishi yangi mutaxassisliklarning vujudga keltirishi mumkin.

Shu bilan birga, ko'pchilik bozor islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- qisqa muddatli o'quv dasturlari xizmatlari natijalaridan foydalanish maqsadlari, vazifalari va imkoniyatlari haqida ma'lumotlarning etishmasligi;

- bu turdagi faoliyat professionallik mezonlari, nazorat va uni tartibga solish mexanizmlarining yo'qligi bir tomondan va ikkinchi tomondan bozor xajmlarining ortib borishi;

- bir turdagi trening dasturlarini keltirib chiqaruvchi rivojlanmagan ilmiy baza;

- bunday xizmatlarga narxlarni sezilarli farqlanishiga sabab bo'layotgan aniq narxlar siyosatining yo'qligi;

- etarli darajada to'lov qobiliyati bo'lmaganligi uchun bunday xizmatlarga talabning pastligi.

3.2. Aholining ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirishda infratuzilmani rivojlantirish

Respublikada bozor islohotlari jarayonlarini avj oldirish hozirgi kunda mehnat bozori sub'ektlarining yangi mehnat tuzilmalariga bo'lgan qiziqishlarini va yangi maqsadlari shakllanishi jarayonlari faol avj olishiga olib kelmoqda hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif shakllanishini yuzaga keltirmoqda. Bir vaqtning o'zida mehnat bozori sub'ektlarining o'zaro aloqalarini jamoa-shartnomaviy va normativ-huquqiy bazalarini doimiy rivojlantirish, mehnat bozori infratuzilmalarini kelgusida rivojlantirishni talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday iqtisodiy munosabatning tashkiliy-iqtisodiy bazasiz amalga oshirish samarasizdir. Shuning uchun ham mehnat bozori infratuzilmasidagi ish faoliyatini tashkil qilish asoslarini ilmiy asosda yoritish aholi ish bilan bandligining sifat jihatdan

tarkibining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshiradi. Mehnat bozorini to'liq ishlashi uchun rivojlangan infratuzilmani shakllantirish lozim.

Aholining mehnatda bandlik darajasi har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanish ko'lamini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Aholi ish bilan bandligi tarkibi sohasida bozor aloqalarini rivojlantirish yangi va o'xshash bo'lmagan yondashishni, mehnat bozori elementlarini o'rganishda muntazamlikni, bozor kategoriyalari va tushunchalarining uslubiy bazasini yangilashni talab etadi. Iqtisodiyotni qayta qurish va shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kelgusida aholini ish bilan bandligi sohasidagi institutsional tuzilmalar faoliyatlarini jadallashtirish va normativ-huquqiy bazalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Aholi ish bilan bandligi tarkibining etarli darajada sifat jihatdan ta'minlanishi mehnat bozori infratuzilmasi barcha sub'ektlari, shuningdek davlat va nodavlat ish bilan bandlik xizmatlari tomonidan ko'tilayotgan bir qator joriy masalalar va muammolarning muvaffaqiyatli echimlarini hal etishni talab etadi.

Mehnat bozori infratuzilmasining tarkibiy qismi asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: davlat muassasalari, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi nodavlat tuzilmalar, korxonalar va firmalarga kadrlar bilan xizmat ko'rsatish, xususiy vositachi firmalar, samarali ish bilan bandlikni ta'minlaydigan jamoat tashkilotlari va jamg'armalar .

Mehnat bozori infratuzilmasining samarali shakllanishi va rivojlanishi sharoitida ishsizlikni kamaytirish hamda aholining ish bilan bandligini tarkibini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha iqtisodiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish aniq sotsiologik so'rovlar o'tkazishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tajribalarga asoslanadigan bo'lsak, korxonalarda yollanma ishchi-xodimlarning o'z kasb-malakalariga mos, to'liq ish vaqti bo'yicha ish joylariga ega bo'lishlari ularning mehnat natijalariga bo'lgan qiziqishlari ortishiga va buning natijasi o'laroq mehnat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi va holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan shakllantirish

samaradorligi bir qator muammolar echimini yoritishni nazarda tutadi. Bizningcha, bu muammolar quyidagilardan iborat:

1. Malakali kadrlarning taqchilligi.

Iqtisodiyotda mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi, zamonaviy yangi tarmoqlarning vujudga kelishi uchun asos yaratmoqda. Buning natijasida mehnat bozorida zamonaviy kasblardagi malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

So'nggi 3-4 yilda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarida malakali ishchi kuchi oshganligi va oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni ish bilan ta'minlanganlik darajasini o'sishi kuzatilmoqda. Lekin, respublika mehnat bozorida oliy ma'lumotli va malakali kadrlarning taklifi 7-8%ni, ayrim hollarda 6-7%ni tashkil qilmoqda.

2. Tarkibiy ishsizlik.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi texnologik va mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi tarkibiy ishsizlik miqdorining oshishiga olib kemoqda. Shunday bo'lsada, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi shi o'rinlarining yaratilishi natijasida tarkibiy ishsizlik miqdori nisbatan keyngi yillar mobaynida kamayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

3. Iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar tarkibi va kasbga tayyorlash va yo'naltirish bo'yicha o'quv yurtlari o'rtasidagi nomuvofiqlik.

Ta'lim tizimi va markazlarida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat ko'rsatkichlari bo'lib, bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi bo'lishi zarur.

4. Ishsizlik davomiyligining yuqoriligi, bu ko'rsatkich ishsizlik muddatini o'rtacha 6-7 oygacha cho'zmoqda. Buning natijasida, ishlab chiqarishda band bo'lmagan mehnat resurslari salmog'ining oshib borishi bir necha o'n minglab kishilar kun ish vaqtining yo'qolishiga olib kelmoqda.

Ishsizlikni davomiyligining yuqoriligi: bo'sh ish o'rinlari haqida axborotlarning etishmasligi; qonunchilikda ko'rsatilmagan ortiqcha hujjatlarning ish beruvchilar tomonidan talab etilishi; kadrlarni tanlash usullari muddatining cho'zilib ketishi; ko'pchilikning bir xil kasblar bo'yicha mutaxassislikka egaligi;

kadrlarni qayta tayyorlashning uzoq muddatligi va boshqa sabablar natijasida yuzaga kelmoqda.

5. Kadrlar qo'nimsizligining yuqoriligi.

Korxonalarda kadrlar qo'nimsizligining yuqori darajada ekanligini asosiy sabablari quyidagilardan iborat: ish haqini korxona faoliyatini yakuniy natijalari bilan bog'lanmaganligi; transport vositalaridagi chipta haqining oshishi; kadrlarning qisqarishi; ish joylarida mehnat sharoitlarining yomonlashuvi; ish beruvchilar tomonidan mehnat qonunchiligining buzilishi va boshqalar.

6. Ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish joylariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olishning qiyinligi, ish beruvchilarning bo'sh ish joylari haqida axborotlarni sir tutishi.

Ko'pchilik ish beruvchilar O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» Qonunning talablariga qaramasdan ish bilan bandlik xizmati organlariga bo'sh ish joylari haqida to'liq axborotni bermaydilar. Ular boshqa imkoniyatlardan foydalanish maqsadida qarindoshlari, o'zining korxonasidagi yaqin tanishlari orqali bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni tanlaydilar.

7. Kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish doirasidagi muammolar.

Bularga: tadbirkorlikning boshlang'ich bosqichida faoliyatini rivojlantirish uchun kredit mablag'larining etishmasligi; xom ashyo-materiallar etkazish bo'yicha hamda tayyor mahsulot realizatsiyasi bo'yicha muammolarning mavjudligi; zarur bilim va maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining chegaralanganligi va boshqalar.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarish infratuzilmasining ustuvor rivojlantirishni amalga oshirish. Bunda asosiy e'tibor melioratsiya, gidrotexnika, elektr energiyasi inshootlari va tarmoqlarini rivojlantirishga, erlarni sug'orishga, eroziyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishga, ko'p yillik ko'chatlar ekish, sanoatning qayta ishlovchi korxonalarini qurish va

texnika bilan qayta uskunalashga qaratilishi, muxandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlari: vodoprovodlar, kanalizatsiya tizimi va inshootlari, gaz va elektr ta'minoti tarmoqlari, yo'llar, telekommunikatsiya tizimlari ustuvor bo'lishi lozim.

2. Qishloqda bozor infratuzilmasini tashkil etish va uni jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish maqsadida viloyatning barcha shahar va tumanlarida bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga davlat etilgan "Tadbirkorlik departamentlari" faoliyati takomillashtirilishi lozim.

3. Davlat migratsiya jarayonlarini qishloq foydasiga o'zgartirish uchun demografik siyosat o'tkazilishi, oilani har tomonlama rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi va uni rag'batlantirish yo'li bilan aholini ish bilan ta'minlashni amalga oshirish darkor. Bu tadbir, albatta, qishloq xo'jaligidagi ish bilan bandlik hajmiga ta'sir o'tkazadi. Aholining qishloqda o'rnatilib qolish jarayonini rag'batlantirish va uni kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sohasidagi ishga jalb qilish maqsadida qishloq joylarda shaharga nisbatan (aholi jon boshi hisobiga) turar joy, ta'lim, madaniyat va sport, sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurishda, gazlashtirish, suv va elektr ta'minoti, telefonlashtirish, aloqa, kommunal ob'ektlarni qurish, radio va televidenie xizmatlarida afzalliklar yaratishni nazarda tutish kerak.

Xususiy tadbirkor va kichik biznes korxonalariga kreditlar berish investitsion loyihalarning mablag' bilan ta'minlashiga, ularning ustav fondlarida ishtirok etishiga, maslahat va axborot xizmatlari shaklida texnik yordam ko'rsatishni amalga oshiruvchi hududiy tarmoqlarni rivojlantirishga yordam beradi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish chog'ida ijtimoiy sohani rivojlantirishga investitsiyalar ulushini, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ijtimoiy soha ob'ektlarini aholi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatni tashkil etish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berish yo'li bilan

ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish lozim, chunki ijtimoiy sohaning rivojlanishi xizmat sohasidagi ish bilan bandlik darajasining oshishiga olib keladi va ish bilan bandlik tarkibini takomillashtiradi.

Tadbirkorlik muhitini yaratish orqali ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirishda qishloq joylarda bilim va mehnatni ko'p talab qiladigan xizmat sohasini jadal rivojlantirish, intensiv dehqonchilikka o'tish, qishloq ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, ekologiya talablarini ta'minlash, shuningdek, aholining zarur harakatchanligini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yaratish muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, texnik maqsadlardagi mahsulotlar, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan, shuningdek, qurilish faoliyatini amalga oshirayotgan, ta'mirlash-qurilish, maishiy va kommunal xizmatlar ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. Bu o'z navbatida, qishloq xo'jaligining qayta ishlash sanoat tarmoqlaridagi ish bilan bandlik darajasini oshiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qonun hujjatlari qabul qilish, amaldagi me'yoriy-huquqiy mexanizmni takomillashtirish lozim. Buning uchun mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar tengligini ta'minlash, Vazirlar Mahkamasi tomonidan ustuvor mahsulot turlariga kiritilgan davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan va etkazib beriladigan mahsulot turlari bo'yicha shartnomalarni shakllantirish, taqsimlash va tuzishda davlat ehtiyojlari uchun etkazib beriladigan mazkur mahsulot turi umumiy hajmining kamida 15 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida o'tkaziladigan tanlovlar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida taqsimlash darkor.

Me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalarni boshqarish huquqini nodavlat tuzilmalarga (xo'jalik uyushmalariga) berish tizimidan davlat mulkini boshqarishning trast shartnomalari tizimiga o'tishni amalga oshirish lozim. Bu yirik korxonalarning kichik korxonalarga

aylanishini ta'minlaydi va kichik biznesning ish bilan bandlik tarkibidagi ulushini oshiradi. Turli mulkchilik va tashkiliy shakllarga ega bo'lgan korxonalar namunaviy ta'sis hujjatlari paketlarini tasdiqlashi, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlarini yagona talqin qiluvchi sharhlar tayyorlanishi kerak. Bundan tashqari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tarmoq va mintaqa ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirish dasturlarini ishlab chiqish, korxonalarning davlat bilan mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish shartnomalarini tuzishlariga oid tanlovlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash lozim.

Qishloq xo'jaligida ish bilan bandlik darajasining mehnat unumdorligi oshishi hisobiga kamayishini ta'minlash lozim. Bu esa, jahon tajribasiga ko'ra, ish bilan bandlik tarkibining ob'ektiv ravishda takomillashishiga olib keladi. Qishloq joylarda raqobatga bardoshli mahsulotlarni ishlab chiqarish, eksport hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash, qishloqda qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni tashkil etish loyihalariga birinchi navbatda yordam berish kerak. Iqtisodiyotning ustuvor sohalarida va eng avvalo qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish hamda qayta ishlash, oziq-ovqat, sanoat tovarlari, xalq iste'mol tovarlari, dori-darmonlar va tibbiyot asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, kommunal va maishiy xizmatlar ko'rsatish, turar joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi ob'ektlarni qurish, innovatsiya faoliyati va ilm-fanni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida kichik biznes va xususiy korxonalarga imtiyozlar va afzalliklar berish kerak. Qishloq xo'jaligi va mahalliy xom ashyoni qayta ishlash uchun zamonaviy texnologik asbob-uskunalar to'plamlari etkazib berilishi, kooperatsiyalashgan servis xizmati tizimini, mini zavodlar va mini texnologiyalarni tayyorlovchi ishlab chiqarishlar tashkil etilishi lozim.

Texnologik modernizatsiya va bilimni ishlab chiqarishda qo'llash ham ish bilan bandlik tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Globallashtirish jarayonida faqat texnologik jihatdan rivojlangan ishlab chiqarish turlari raqobatdosh bo'la oladi.

Demak, ish bilan bandlik tarkibi globallashuv sharoitda texnologik rivojlanish orqali saqlanishi mumkin.

Ilmiy-texnika va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash, standartlar va mahsulotlar sifati sohasidagi tartibga solishlar yo'li bilan kichik biznes va xususiy korxonalar tomondan ishlab chiqariladigan tovarlarning raqobatga bardoshlilikini oshirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish lozim. Bulardan tashqari, kichik va xususiy korxonalarni jadal texnik qayta jihozlashni rag'batlantirish, texnologik inkubatorlar, qayta ishlovchi va mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar namunaviy loyihalarini yaratish, ularni keng joriy qilish va yangi texnologiyalar sharoitlarida yo'nalish bo'yicha o'qitishni tashkil etish, keyinchalik kichik va xususiy tadbirkorlarga sotish uchun tamoman yangi mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasi litsenziyalarini sotib olishni amalga oshirish lozim.

Axborotning tanqisligi tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, chunki tadbirkorlar axborot etishmasligi natijasida inqirozga uchraydi yoki zarar ko'radi. Bu esa, ish bilan bandlik tarkibidagi tebranuvchi o'zgarishlarga olib keladi. Bizning fikrimizcha, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga axborot xizmati ko'rsatishni imtiyozli shartlarda amalga oshirish kerak. Kredit muassasalari, qimmatli qog'ozlar bozorining ahvoli va aktsiyalar kotirovkasi, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va ehtimol tutilgan sheriklar to'g'risida axborot e'lon qilinishi lozim. Marketing, boshqaruv maslahati, audit, reklama, kontrolling, tashqi iqtisodiy operatsiyalar sohasida ixtisoslashtirilgan kichik va xususiy korxonalar tizimi yanada rivojlanishi kerak. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muammolari bo'yicha ilmiy, ma'lumotnoma va o'quv adabiyoti, har chorakda chiqadigan "Xususiylashtirish" byulleteni, komplekt asbob-uskunalar kataloglari, biznes-kataloglar nashr etilishi darkor.

III - bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirishning yangi kontsepsiyasi hisoblangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Aholi ish bilan bandligi tarkibini sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Unda ta'lim isohotlarining o'qitish va ta'limning insonparvarligi, demokratik xususiyati, ta'lim tizimiga egiluvchan, dinamik, moslashuvchan xarakterni berish, kasbiy tayyorgarlik sifatini takomillashtirish uchun tashkiliy shart-sharoitlarni shakllantirish kabi asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgan.

O'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kelishi va umuman jamiyatning ham, alohida shaxsning ham ehtiyojlarini qondirishi hamda kasb malakaga oid bilimlarni egallagan kadrlarni tayyorlashi lozim. Bunda mamlakat iqtisodiyotining yanada jadal rivojlanishini va kasbiy ta'limga muhtoj bo'lganlar sonining ortishini hisobga olish lozim va xo'jalik sub'ektlarining tashkil etilishini prognoz qilish, kasbiy ta'limni beruvchi o'quv muassasalarining sonini prognoz qilish, iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarni tayyorlash hajmini prognoz qilish, moliyaviy ta'minotni prognoz qilish kabi tadbirlarga tayanish talab qilinadi.

Mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishi va holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan shakllantirish samaradorligi malakali kadrlarning taqchilligi, tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar tarkibi va kasbga tayyorlash va yo'naltirish bo'yicha o'quv yurtlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish joylariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olishning qiyinligi kabi bir qator muammolar echimini yoritishni nazarda tutadi.

X U L O S A VA TAKLIFLAR

Dissertatsiyada tahlil qilish va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida ish bilan band bo'lgan aholi tarkibining hozirgi holati va istiqbollari to'g'risidagi quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

1. Ish bilan bandlik tarkibi ish bilan bandlik tizimi elementlari va ular o'rtasidagi barqaror aloqalarni tashkil qiluvchilar yig'indisi bo'lib, turli gurux va kategoriyadagi ish bilan bandlarning umumiy ish bilan band bo'lganlardagi nisbati bilan belgilanadi. Ish bilan bandlik darajasi va tarkibini aholining ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kelishi, milliy va xududiy mehnat bozori doirasida ish o'rinlari va mehnat resurslari o'rtasidagi muvozanat mezonlari bo'yicha baholash mumkin. Ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirish esa respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib, mehnat faoliyati qatnashchilarining mehnat jarayoniga jalb etilishi yuzasidan ular o'rtasidagi munosabatlar, uning maqsadli yo'nalishini belgilash, maqbul iqtisodiy samarani tashkil etish imkonini beradi.

2. Aholining ish bilan bandligi tarkibini o'rganishga nazariy yondashuvlarini tadqiq etish asosida uning tarkibini tarmoqlar, kasb guruhlari, yosh va jins, ma'lumoti darajasi, mulkchilik shakllari, korxonalar turlari bo'yicha tasniflash taklif qilingan.

3. Ish bilan bandlik tarkibi samaradorligini oshirishda aholining jins-yosh tarkibi, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi, korxonalar o'lchamlarining o'zgarishi, mulkchilik shakllari va mehnat unumdorligi, ish haqining o'sishi singari muhim omillar katta rol o'ynaydi.

Jumladan, o'tgan besh yil davomida qishloq xo'jaligida ishlovchi ishchilarning o'rtacha ish haqi miqdori yuqori sur'atda (291,4 %ga) o'sganligini ko'rsatadi. Biroq, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish haqi miqdorini taqqoslash, uning qishloq xo'jaligi sohasida eng kam (347,4 ming so'm) ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib qishloq xo'jaligida ish bilan bandlar uchun malaka toifalarini kiritish tavsiya etiladi. Bunday sharoitlarda ishchilarga mehnatning murakkabligi,

uning ijodiy ko'rinishini aks ettiruvchi ma'lum malaka toifasi beriladi. Taklif etilayotgan tizim ma'lum ma'noda mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofatli shakli bilan mos keladi. Bunda har bir xodimga muayyan ish turlarini bajarish bo'yicha me'yoriy topshiriqlar belgilanadi.

4. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan respublika iqtisodiyotida ish bilan band bo'lgan aholining ma'lumoti darajasi bo'yicha tahlili oliy va o'rta maxsus ma'lumotli ish bilan band bo'lganlar soni o'sganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kelishi va umuman jamiyatning ham, alohida shaxsning ham ehtiyojlarini qondirishi hamda kasb malakaga oid bilimlarni egallagan kadrlarni tayyorlashi lozim. Bunda mamlakat iqtisodiyotining yanada jadal rivojlanishini va kasbiy ta'limga muhtoj bo'lganlar sonining ortishini hisobga olish lozim va xo'jalik sub'ektlarining tashkil etilishini prognoz qilish, kasbiy ta'limni beruvchi o'quv muassasalarining sonini prognoz qilish, iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarni tayyorlash hajmini prognoz qilish, moliyaviy ta'minotni prognoz qilish kabi tadbirlarga tayanish talab qilinadi.

5. Ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilashda respublikada mehnat bozori infratuzilmasi rivojlantirish aholida o'ringa ega bo'lib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan shakllantirish samaradorligi malakali kadrlarning taqchilligi, tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar tarkibi va kasbga tayyorlash va yo'naltirish bo'yicha o'quv yurtlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish joylariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olishning qiyinligi kabi bir qator muammolar echimini yoritishni nazarda tutadi.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

–qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarish infratuzilmasining ustuvor rivojlantirishni amalga oshirish.

–qishloqda bozor infratuzilmasini tashkil etish va uni jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish maqsadida

bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga da'vat etilgan "Tadbirkorlik departamentlari" faoliyati takomillashtirilishi lozim.

–tadbirkorlik muhitini yaratish orqali ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilashda qishloq joylarda bilim va mehnatni ko'p talab qiladigan xizmat sohasini jadal rivojlantirish, intensiv texnologiyalarga o'tish, aholining zarur harakatchanligini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yaratish muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda aholi ish bilan bandligi tarkibini takomillashtirish borasida sezilarli ishlar olib borilmoqda, biroq shu bilan birga ish bilan bandlik tarkibini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha hali bir qancha ishlar olib borish kerakligi aniqlandi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotga joriy qilish aholi ish bilan bandligi tarkibini sifat jihatdan yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** –Toshkent: O'zbekiston, 2012,– 45 b.

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – T.: Adolat, 2011. – 276 b.

3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni. (yangi tahrir). -Toshkent: Adolat, 1998. –7 b.

4. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997. - № 11-12.

5. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. -1997. - № 9.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori. –Toshkent: 1992. 31 dekabr, 606-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. –Toshkent: 2006 yil 5 yanvar, PF-3706-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. –Toshkent: 2007. 6 aprel, PK-616- son.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori. –Toshkent: 2007. 24 may, 106- son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi 616-sonli “Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza

qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
Qarori. – Toshkent: 2007 yil 6 aprel.

11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan 1999 yil 24 aprelda 2/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 iyulda 762-son bilan ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral'

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

12. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2015 yil 17 yanvar, № 14.

13. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2013 yil 19 yanvar, № 13.

14. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.-T.: "O'zbekiston", 2012. 36 b

15. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi, 22.01.2011 y. №16

16. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash- barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. // –T.: Xalq so'zi, 2008. 9 fevral.-1-2 b.

17. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lida yanada izchil harakat qilish, uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir. –T.: "O'zbekiston", 2007.

18. Karimov I.A. Yangicha hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. –T.: "O'zbekiston", 2005, 34 b.

19. Karimov I.A. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish-taraqqiyot omili. –T.: "O'zbekiston", 2004, 27 b.

IV. Asosiy adabiyotlar

20. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2012. -389 b.
21. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – T.: “TDIU” 2011, 420 b.
22. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Aholini ish bilan bandligi.O’quv qo’llanma.-T.: “TDIU” 2011, 230 b.
23. Adamchuk V.V., Romashov O.V., Sorokin M.E. Ekonomika i sotsiologiya truda: Uchebnik dlya vuzov. – M.: YuNITI, 2009, - 407 –s.
24. Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana: istoriya i sovremennost. – T.: Ijtimoiy fikr, 2009. –154-155.
25. Bulanov V. Rinok truda. Uchebnik. – M: Ekzamen, 2008
26. Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. – M.: Progress, 1984. –S.56.
27. Volgin N.A. Ekonomika truda: (sotsialno-trudovie otnosheniya) / Pod red. N.L. Volgina, Yu.D. Odegova. -M.: «EKZAMEN», 2009, 736-s.
28. Genkin B.M Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik dlya vuzov. —M.: Norma, 2007, 432-st.
29. Gelbrayt D.. Ekonomicheskaya teoriya i tseli obshchestva. -M.:Nauka. 1979. –406 s..
30. Jukov S., [Reznikova](#) O.V. Tsentralnaya Aziya v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennogo mira. - Moskva: Moskovskiy obshchestvenniy nauchniy fond, 2001.
31. Juravlev P. Upravlenie chelovecheskimi resursami: opit industrialno razvitix stran. – M: EKZAMEN, 2005.
32. Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. –138-b.
33. Zyablikov D.V. Teoreticheskie aspekti effektivnoy zanyatosti naseleniya. // Elektronniy jurnal «ISSLEDOVANO V ROSSII», 2004. <http://zhurnal.ape.relarn.ru/articles/2004/192.pdf>

34. ILO. Year Book of Labour Statistics.-Geneva, 2011.
35. Kuzmin S.A.. Zanyatost: strategiya Rossii. - M.: Editorial,URSS, 2001. 233-s.
36. Keyns Dj. Obshchaya teorii zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: 1978.
37. Kokin A.Ya. Ekonomika truda. Uchebnik. - M.: Magistr, 2010. – 686 str.
38. Makkonell K.R.,Bryu S.L.Ekonomiks:printsipi, problemi i politika. (perevod s angl). -M.:Infra-M, 2002. -400 s.
39. Rinok truda: Uchebnoe posobie. Kollektiv avtorov pod ruk. akad. Abduraxmanova K.X.– T.: TFREA, 2009. 436 s..
40. Ryaeantsev SV. Mirovoy rinok truda i mejdunarodnaya migratsiya: Uchebnoe posobie. — Moskva; ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2010. -303-s.
41. Sokolin B. Krizisnaya ekonomika Rossii: rubej tisyacheletiy - SPb.: «Liki Rossii», 1997. – 369-s.
42. Sbitova L.S. Struktura zanyatosti i effektivnost proizvodstva. - M.: Nauka, 2007
43. Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. – M.: Nauka, 1993.
44. Friedman M. Money and Economic Development/ M.Friedman// 1973. №4. –S.70 .
45. Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi.– T.: Universitet, 2006;
46. Xasanov A. Ish bilan bandlik muammosi // J. Jamiyat va boshqaruv 2001. № 1, -B.27.
47. Shoyusupova N. Zamonaviy mehnat bozori faoliyati va tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi // Jurnal. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi 2007, № 10-11. b 44.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

48. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 346 b.

49. Artikova D.A. Formirovanie zanyatosti naseleniya v Respublike Uzbekistan. – T.: Fan, 2005;
50. Gonorskaya A.V. Obespechenie zanyatnosti trudovix resursov respubliki Uzbekistan s ispolzovaniem potentsiala negosudarstvennix nekommercheskix organizatsiy // Avtoref. diss. kand. ekon. nauk.–T.: 2002.-S.13.
51. Zokirova N.K. Sotsialno-trudovie otnosheniya: mejdunarodniy i natsionalnie aspekti. - T.: Fan, 2008. – S. 88.
52. Mirsaidov D. Mirlliy iqtisodiyotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ish bilan bandlik tarkibining yangi yo’nalishi sifatida. // Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma’ruza tezislari to’plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.
53. Mirsaidov D. Iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligik tarkibini yaxshilash yo’nalishlari// Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma’ruza tezislari to’plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.
54. Mirsaidov D. Aholini ish bandligini ta’minlashda tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish chora tadbirlari//Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish istiqbollari mavzusidagi magistratura talabalarining ilmiy amaliy anjumani ma’ruza tezislari to’plami. – T.: TDIU, 2013.
55. Rahimova D.N. va boshqalar. Milliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlashni boshqarishni takomillashtirish yo’nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B.23.
56. Tangriev L.X. Yoshlar siyosat sub’ekti: bandlik muammosi // Iqt. fan. nom. diss. avtoref. –T.: 2001, -B. 4.
57. Xolmo’minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2004. – 202 b.,
58. Mirzakarimova M.M. Bandlikda ijtimoiy sheriklik. Monografiya. T.: “O’zbekiston milliy entseklpediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2013 y., 202 b.
59. Mirzakarimova M.M., Haydarov M.T. Ijtimoiy sheriklik va samarali bandlik. Monografiya. – T.: “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti” nashriyoti, 2014.-224 b.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

60. Obrazovanie v Respublike Uzbekistan. 2011. Statisticheskiy sbornik. T. – 2012. – 281-s.
61. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.
62. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.
63. O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. Toshkent-2014.
64. O'zbekiston raqamlarda 2014 Uzbekistan v tsifrax. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. Toshkent-2014.
65. O'zbekiston Respublikasi savdo sanoat palatasi ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari

66. [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
67. [http:// www.wto.org](http://www.wto.org)
68. [http:// www.goldenpages.uz](http://www.goldenpages.uz)
69. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)
70. [http:// www.uza.uz.](http://www.uza.uz)
71. [http:// www.ilo.ru](http://www.ilo.ru)
72. [http:// www.imce.ru](http://www.imce.ru)
73. [http:// www.lex.uz.](http://www.lex.uz)
74. [http:// www.mehnat.uz.](http://www.mehnat.uz)

